

OOO “UPNET” kompaniyasining telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha ommaviy ofertaning huquqiy asoslari va ahamiyati

Mazkur Ommaviy oferta O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367–369-moddalariga muvofiq OOO “UPNET” kompaniyasining telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha abonent shartnomasini tuzishga rasmiy ommaviy taklifi hisoblanadi.

Operator telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish uchun fuqarolik-huquqiy munosabatlar sub’ekti (keyingi o‘rinlarda - Abonent) bilan muayyan telekommunikatsiya xizmatini yoki bir nechta (paketli) telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish haqida ushbu ommaviy ofertada ko‘rsatilgan shartlarda (doirasida) abonent shartnomasini tuzadi. Abonent bilan tuziladigan telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha abonent shartnomasi (keyingi o‘rinlarda – Abonent shartnomasi) mazkur Ommaviy ofertaning ajralmas qismi hisoblanadi.

Operator o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari hamda 2024 yil 10 maydagi 273230-raqamli litsenziya asosida amalga oshiradi.

Mazkur Ommaviy oferta Internet tarmog‘idagi: www.upnet.uz manzilidagi Operatorning rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan vaqtdan boshlab kuchga kiradi va rasmiy e‘lon qilingan saytda uning bekor qilinishi haqida xabar berilguniga qadar amal qiladi.

Operator mazkur Ommaviy oferta shartlariga o‘zgartirish kiritish huquqini mazkur Ommaviy ofertada o‘rnatilgan tartibga muvofiq, o‘zida saqlab qoladi. Mazkur Ommaviy oferta shartlari Operatorga murojaat etgan barcha fuqarolik-huquqiy munosabatlar sub’ektlari uchun yagona bo‘lib hisoblanadi.

Mazkur Ommaviy oferta Operator va Abonentlar o‘rtasida tuzilgan shartnoma (kelishuv) asosida taqdim etiladigan telefon aloqasi, axborot-ma’lumotlar, ma’lumotlar uzatish tarmog‘i, Internet, jamoat foydalanish joylarida Internet tarmog‘idan simsiz foydalana olish, mobil aloqa, milliy va xalqaro rouming, tijorat asosidagi kabelli, efir, interaktiv, IPTV (IP-televideniye), OTT (Over the Top) va on-line televideniye xizmatlarini tashkil qilish, shuningdek, ulardan foydalanish, xizmatlarni ko‘rsatish tartibi, shartlari hamda sub’ektlarning javobgarligi, huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

1. ATAMALAR VA IZOHLAR

Mazkur Ommaviy oferta maqsadlari uchun quyidagi asosiy atama, ta’riflar va qisqartmalar qo‘llanilgan:

Abonent – mazkur Ommaviy oferta shartlarida Operator bilan telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish haqidagi abonent shartnomasini tuzgan fuqarolik-huquqiy munosabatlar sub’ekti bo‘lgan - muomala layoqatiga ega bo‘lgan (voyaga yetgan) jismoniy shaxs, mulkchilik shaklidan qat’i nazar, davlat ro‘yxatidan o‘tgan yuridik shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor yoki qonun hujjatlariga ko‘ra, yuridik shaxsni tashkil etmasdan faoliyat yurituvchi fuqarolik-huquqiy munosabatlarning boshqa ishtirokchilari, notijorat-nodavlat tashkilotlar, ommaviy-huquqiy tashkilot va boshqalar.

Abonent shartnomasi – Abonent va Operator o‘rtasida mazkur Ommaviy oferta shartlari asosida tuzilgan va Abonent tomonidan mazkur Ommaviy oferta shartlarini qabul qilganligini qayd etuvchi, Operator Abonentga muayyan telekommunikatsiya xizmatini yoki bir nechta (paketli) telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etish majburiyatini oladigan Abonent to‘g‘risidagi ma’lumotlar va buning uchun zarur elementlar (abonent raqami, tarif rejasi va h.k.) va boshqa mavjud shartlardan iborat bo‘lgan hujjat (keyingi o‘rinlarda – Shartnoma).

Abonent qurilmasi – Abonent mulki bo‘lgan yoki unga vaqtincha egalik qilish va foydalanishga berilgan telekommunikatsiyalar tarmoqlari bilan o‘zaro bog‘lanadigan, telekommunikatsiyalar tarmoqlari orqali uzatiladigan yoki qabul qilinadigan signallarni hosil qilish, o‘zgartirish, qayta ishlash uchun mo‘ljallangan texnik vosita – qurilma (oxirlovchi qurilma). Abonent qurilmasi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi standartlariga muvofiq taqdim etilgan mazkur qurilma turi bo‘yicha texnik talablarga muvofiq bo‘lishi shart.

Abonent raqami – telekommunikatsiya xizmatlari ko‘rsatilishi uchun shartnomaning amal qilish davrida Abonentga Operator tomonidan ajratiladigan raqam. Abonent raqami Operator tarmog‘iga abonent qurilmalari ulanganida, Abonent qurilmasi ulanganligini identifikatsiya qiluvchi raqam hisoblanadi.

Abonent tarmog‘i — turar joy yoki jamoat binosi maydoni chegarasida xizmat ko‘rsatiladigan Abonentning texnik vositalari, qurilmalari va kabel liniyalari majmui.

Abonent liniyasi — telekommunikatsiya liniyasining Operator telekommunikatsiya tarmog‘ining kirish nuqtasidan Abonent rozetkasigacha yoki u mavjud bo‘lmaganda, Abonent qurilmasigacha bo‘lgan qismi.

Abonent to‘lovi – Operator tomonidan Abonentga ko‘rsatilayotgan telekommunikatsiya xizmatlari uchun iste‘mol qilinadigan va ushbu xizmat hajmidan qat‘i nazar (abonentning ma‘lum (hisob-kitob qilinadigan) vaqt davri (oy, chorak, yil va b.) uchun to‘lovlari summasi haqiqatda olingan xizmatlar hajmiga bog‘liq bo‘lmagan doimiy miqdor hisoblanadigan xizmatlar uchun) so‘zsiz har oy qayd etiladigan va to‘lanadigan to‘lov.

Abonent shaxsini tasdiqlovchi hujjat (jismoniy shaxslar uchun) – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik pasporti (xorijga chiqish biometrik pasporti bundan mustasno), identifikatsiya ID-kartasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 2 martdagi 116-son qarori bilan joriy etilgan milliy haydovchilik guvohnomasi, chet el fuqarolik pasporti (O‘zbekiston Respublikasi hududida vaqtinchalik ro‘yxatdan o‘tganlik to‘g‘risidagi belgi yoki ma‘lumot bilan birga), fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning guvohnomasi, O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi, harbiy xizmatchining pasport ma‘lumotlari va uning ro‘yxatda turgan joyini tasdiqlovchi ilovasi bilan belgilangan shakldagi harbiy guvohnoma (telefoniya uchun yashash joyiga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi hujjat).

Abonent raqamining ko‘chib o‘tishi (MNP - Mobile Number Portability) - mobil aloqa xizmatlarini ko‘rsatish shartnomasi asosida donor tomonidan abonentga ajratilgan abonent raqamini boshqa mobil aloqa operatori (retsipient) bilan yangi shartnoma tuzishda saqlash va undan foydalanish uchun amalga oshiriladigan tashkiliy - texnik tadbirlar majmui.

Avtorizatsiya – Abonent tomonidan kiritilgan autentifikatsiya ma‘lumotlarini Operator serverida tahlil qilish jarayoni, uning natijalari bo‘yicha Abonentda xizmatni olish yoki shaxsiy kabinetga kirish huquqi mavjudligi aniqlanadi.

ASR – Operator va Abonent o‘rtasidagi hisob-kitoblarni avtomatlashtirish, shuningdek, ko‘rsatilgan telekommunikatsiya xizmatlarini hisobga olish va qayta ishlash uchun mo‘ljallangan avtomatlashtirilgan hisob tizimi/billing tizimi (apparat - dasturiy kompleks).

Autentifikatsiya — ma‘lumotlar uzatish tarmog‘i xizmatlaridan foydalanuvchi tomonidan ko‘rsatilgan identifikatsiyalash ma‘lumotlarining haqiqiylikini aniqlash.

Autentifikatsiya ma‘lumotlari - Abonent individual hisob ma‘lumotlari jamlanmasi bo‘lib (agar ular talab etilsa, qo‘llaniladi), Operator tomonidan shartnoma asosida, mazkur Ommaviy ofertaning quyidagi shartlarini tuzishda shakllantiriladi:

a) Foydalanuvchining nomi (login) – Abonentning Operator tizimida asosiy individual identifikatsiya ko‘rsatkichi. Abonentga Shartnoma tuzilganida va Abonent birinchi bor ro‘yxatga olinganida taqdim etiladi, amaldagi Shartnoma doirasida o‘zgartirilishi mumkin emas.

b) Parol (password) – individual hisob ma‘lumotlari va Abonentning boshqa yopiq ma‘lumotlariga ruxsatsiz kirishdan himoyalash vositasi. Birinchi parol Operator tomonidan shakllantiriladi va taqdim etiladi, keyinchalik parol Abonent tomonidan o‘zgartirilishi mumkin. Foydalanuvchining nomi va paroldan Abonent tomonidan masofadan ulanish va Operator serveriga avtorizatsiya, shuningdek, shaxsiy kabinetga kirish uchun foydalaniladi.

Arxiv tarif rejasi – Operator tomonidan ilgari tasdiqlangan tarif rejasi bo‘lib, yangi ulanishlar uchun yopiq bo‘ladi va unga boshqa tarif rejalaridan o‘tish imkoni bo‘lmaydi.

Bo‘nak avans to‘lovi – shartnoma tuzilganidan keyin telekommunikatsiya xizmatlari ko‘rsatilishini boshlash uchun

Abonentning hisob raqamiga kelgusi hisob-kitob davrida (oldindan to'lov) telekommunikatsiya xizmatlaridan foydalanganligi uchun Abonentning logini va tadbirkorlik sub'ektlari uchun Abonent shartnomasi raqamini ko'rsatgan holda, Abonent tomonidan to'liq hajmda (100 foiz) to'lanishi kerak bo'lgan pul mablag'lari summasi. Bo'nak avans to'lovi tanlangan Tarif/Tarif rejasiga muvofiq Abonent to'lovi qiymatidan, tanlangan pullik telekommunikatsiya xizmatlari qiymatidan shakllantiriladi. Bo'nak avans to'lovi O'zbekiston Respublikasida belgilangan naqd va naqdsiz hisob-kitoblarning qulay usullari, shu jumladan, to'lov agentlari orqali amalga oshirilishi mumkin. Abonentga pullik toifadagi Abonent raqami taqdim etilgan taqdirda, raqamning Boshlang'ich avans to'loviga pullik toifadagi Abonent raqami to'lovi ham to'lov miqdoriga kiritiladi. Pullik toifadagi Abonent raqami narxini uzaytirib to'lash sharti bilan Abonentga pullik raqam taqdim etilgan hollarda, Boshlang'ich avans to'loviga dastlabki hisobot davri ham Abonent to'loviga kiritiladi.

Vijdonli foydalanuvchilar – telekommunikatsiya xizmatlaridan noqonuniy maqsadlarda foydalanmagan, Operatorga, va/yoki uchinchi shaxslarga zarar keltiruvchi harakatlarni sodir etmagan, o'z Abonentlik qurilmasidan dasturiy ta'minot/axborotlarni tarqatish va tarqarishga qaratilgan harakatlarni sodir etmagan, IP-manzillarni noto'g'ri talqin qilmagan, Abonent raqamlari va Operator tarmog'ining, Operator va/yoki uchinchi shaxslarning qurilmalari yoki dasturiy ta'minotlarining me'yoriy amal qilishiga to'sqinlik qiluvchi harakatlarni sodir etmagan, telekommunikatsiya xizmatlaridan bevosita tijorat maqsadlarida foydalanmagan, qayd etilgan mutloq aloqa tarmog'iga ulanish uchun shlyuzlardan, Internet-telefoniya va shu kabilardan foydalanmagan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, tanlab olingan telekommunikatsiya xizmatlari turlari qoidalari va shartlari hamda mazkur Ommaviy oferta shartlariga qat'iy amal qilgan, telekommunikatsiya xizmatlaridan foydalanilganlik uchun o'z huquq va majburiyatlarini to'liq bajargan shaxslar/abonentlar.

Dastlabki avans to'lovi – Abonentning hisob raqamiga kelgusi hisob-kitob davrida (oldindan to'lov) telekommunikatsiya xizmatlaridan foydalanganligi uchun Abonentning logini yoki tadbirkorlik sub'ektlari uchun shartnoma raqamini ko'rsatgan holda, Abonent tomonidan to'liq hajmda (100 foiz) to'lanishi kerak bo'lgan pul mablag'lari summasi. Avans to'lovi tanlangan tarif rejasiga muvofiq Abonent to'lovi qiymatidan, tanlangan pullik telekommunikatsiya xizmatlari qiymatidan shakllantiriladi. Avans to'lovi O'zbekiston Respublikasida belgilangan naqd va naqdsiz hisob-kitoblarning qulay usullari bilan amalga oshiriladi.

Diler – dilerlik shartnomasi yoki tegishli ishonchnoma asosida Operator topshiriqlarini bajaruvchi yuridik shaxs yoki yuridik shaxsni tashkil etmagan yakka tartibdagi tadbirkor (Operatorning vakolatli vakili).

Dilerlik shartnomasi – uning asosida mukofot evaziga Operator nomidan yuridik va boshqa muhim harakatlarni Operatorning topshirig'iga muvofiq bajarish majburiyatini olgan Dilerlik shartnomasi.

Dilerning xizmat ko'rsatish punkti — Diler tomonidan tashkil qilinadigan va foydalaniladigan xizmat ko'rsatish punkti.

Elektron pullar – Elektron pullar emitentining elektron shaklda saqlanadigan hamda Elektron pullar tizimida to'lov vositasi sifatida qabul qilinadigan shartsiz va chaqirib olinmaydigan pul majburiyatlari.

Identifikatsiyalash — mavjud ma'lumotlar asosida ma'lumotlar uzatish tarmog'i xizmatlaridan foydalanuvchining shaxsini aniqlash.

Internet – TSR/IP yagona protokoliga muvofiq ishlaydigan, shlyuzlar yordamida birlashtirilgan va yagona manzilli muhit hamda nomli muhitdan foydalanuvchi juda ko'plab tarmoqlardan tashkil topgan global xalqaro tarmoq (tarmoqlar hamjamiyati tomonidan boshqariladigan tarmoq).

Yirik avariya — Operatorning telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatilayotgan ma'lum bir ma'muriy hududda telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etishning to'xtalishiga olib keladigan texnik-avariyaviy holati.

Kontent – axborot, ko'ngilochar mazmunga ega bo'lgan Voice (ovoz), SMS, GPRS matnlar yoki multimediali ma'lumotlar vositasida olinadigan axborot mazmuni.

Kontent-provayder – Operator tarmog‘i orqali Abonentlarga tijorat asosida kontentli xizmatlarni ko‘rsatadigan yuridik shaxs. Kontent-provayder xizmatlari Abonent qurilmasidan xizmatni olish uchun jo‘natilgan so‘rovnoma (buyruq) yo‘li bilan Abonentning oldindan buyurtmasi bo‘yicha ko‘rsatiladi. Kontent-provayderlar ro‘yxati va ko‘rsatiladigan xizmatlarga Operatorning rasmiy WEB-sayti, shuningdek, kontent-provayderlar rasmiy WEB-saytlari orqali ulanish mumkin. Kontent-provayder xizmatlariga ulanish – aloqa tarmog‘i vositasida kontent-provayderning axborot-ko‘ngilochar xizmatlariga ulanish uchun tuzilgan Operatorning qo‘shimcha (aralash) xizmatidir.

Mobil elektron to‘lov xizmatlari – Operator tarmog‘i orqali Elektron pullar tizimida Abonentga elektron to‘lovlarni amalga oshirish bo‘yicha Operatorning to‘lov subagenti sifatida ko‘rsatiladigan xizmatlari. Bunda Abonent to‘lov xizmatlaridan foydalanuvchi hisoblanadi.

Operator – Abonentlarga bir nechta telekommunikatsiyalar xizmatlari majmuini taklif etuvchi, telekommunikatsiyalar vositalari tarmog‘iga ega bo‘lgan va uning funktsionalligi hamda rivojlanishini ta‘minlovchi “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi.

Operator ofisi – Abonentlarni qabul qiladigan va ularga xizmat ko‘rsatiladigan, Abonentlar to‘g‘risidagi axborotlar hamda Operator faoliyati bilan bog‘liq barcha hujjatlar saqlanadigan va qayta ishlanadigan Toshkent shahrida va O‘zbekiston Respublikasi viloyatlari hududiy bog‘lamalaridagi inshoot, binolar. Operator ofislari joylashgan manzili, ularning ish tartibi haqidagi ma‘lumotlar Operator rasmiy WEB-saytida e‘lon qilingan va (joylashgan manzili, pochta manzili va boshqalar o‘zgarishlari) o‘rnatilgan tartibda yangilab boriladi.

Operator WEB-sayti – Internet tarmog‘ida www.upnet.uz elektron manzilida joylashgan Operator faoliyati, taqdim etiladigan telekommunikatsiya xizmatlari haqida rasmiy axborot jamlangan Operator axborot resursi.

Operator tarmog‘iga ulanish – Abonentning xizmatlarga va axborot resurslariga ulanish maqsadida Operator tarmog‘idan foydalanish uchun texnik imkoniyati.

Operatorning ishlash zonasi — Operatorning telekommunikatsiya xizmatlari ko‘rsatiladigan hudud.

Operatorning javobgarlik zonasi – Operator egaligi va boshqaruvida bo‘lgan telekommunikatsiyalar texnik vositalari va kanallari. Xizmatlar Operator javobgarlik zonasida ko‘rsatiladi. Javobgarlik zonasidan tashqari bo‘lgan Operatorning xizmatlari bilan bog‘liq barcha masalalar Abonent va Operator bilan kelishuv asosida hal qilinadi. Operator bilan shartnoma tuzilguniga qadar, Abonent Operatoridan o‘zining ulanish nuqtasigacha aloqa kanallariga ulanish mumkinligiga ishonch hosil qilishi shart. Aloqa kanallari mavjud bo‘lmaganida bunday aloqa kanallarini tashkil etish mazkur Ommaviy oferta shartlaridan tashqari hal qilinadi.

Operator tarmog‘iga ulanishni taqdim etish – Abonent to‘g‘risida ma‘lumotlarni qayta ishlash va ularni Operatorning apparat–dasturiy kompleksiga kiritish bo‘yicha Operatorning faoliyati. Avans to‘lovi amalga oshirilganidan keyin Abonentda Operator tarmog‘iga ulanish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Operator tarmog‘i – Abonentga telekommunikatsiyalar xizmatlari ko‘rsatiladigan telekommunikatsiya vositalari majmui. Operator tarmog‘i quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ma‘lumotlar uzatish — ma‘lumotlarni keyingi qayta ishlash uchun telekommunikatsiya vositalari yordamida signallar ko‘rinishida bir punktdan boshqa punktga ko‘chirish;
- ma‘lumotlar uzatish tarmog‘i - ma‘lumotlar uzatilishini ta‘minlash maqsadida ma‘lum nuqtalar o‘rtasida telekommunikatsiyalarni tashkil etish uchun tuzilgan telekommunikatsiya uzellari va kanallarining majmui;
- Internet aloqa tarmog‘i - yagona adres va nomlar makonidan foydalaniladigan, shlyuzlar yordamida birlashtirilgan, yagona TSR/IP protokoliga muvofiq ishlaydigan ko‘plab tarmoqlardan iborat global xalqaro tarmoq;
- virtual xususiy tarmoq (VPN) - ko‘plab foydalanuvchilar tomonidan foydalaniladigan transport kanallari orqali

foydalanuvchilarning yopiq guruhlarini qo'llab-quvvatlaydigan virtual ajratilgan transport resurslari to'plami (O'z Dst 2818:2014 Milliy standarti. Telekommunikatsiya tarmoqlari. Atamalar va ta'riflar.).

- Wi-Fi tarmog'i - Wi-Fi texnologiyasi asosida Internetga kirish tarmog'i;

- mobil aloqa tarmog'i — abonentlarga mobil aloqa (ovoz, ma'lumotlar uzatish va boshqalar) xizmatlarini ko'rsatuvchi texnik vositalar (kommutatsion va radioukuna, abonent qurilmalari, ulovchi liniyalari, inshootlar va h.k.) majmui. Mobil aloqa tarmoqlariga uyali, trunk, lokal-trunk, radial-zona tarmoqlari kiradi;

- telefon aloqasi tarmog'i – aholi, muassasalar, tashkilotlar va korxonalarning telefon aloqasi xizmatlariga bo'lgan ehtiyojini ta'minlovchi ATS, kommutatsiya uzellari, liniyalari, kanallari, oxirlovchi (terminal) uskunalarning majmui;

- televideniye tarmog'i — erkin tomosha qilish mumkin bo'lmagan IPTV (IP-televideniye), OTT (Over the Top) va on-line televideniye kanallari orqali har qanday axborotni tarqatish va yetkazib berishni ta'minlaydigan telekommunikatsiya vositalarining majmui;

- mahalliy telefon aloqasi - bitta aholi punkti yoki ma'muriy hudud doirasida joylashgan foydalanuvchilar o'rtasida telefon orqali bog'lanish;

- shaharlararo telefon aloqasi - O'zbekiston Respublikasining turli ma'muriy tumanlarida (shahar tarkibidagi tumanlardan tashqari) joylashgan foydalanuvchilar o'rtasida telefon aloqasining ulanishi;

- xalqaro telefon aloqasi - O'zbekiston Respublikasi hududidagi telefon aloqasi xizmatlaridan foydalanuvchi va boshqa davlat hududidagi telefon aloqasi xizmatlaridan foydalanuvchi o'rtasida telefon aloqasi orqali bog'lanish.

Rouming — bitta mobil aloqa operatori abonentining bitta davlat doirasida (milliy rouming) yoki boshqa mamlakatda (xalqaro rouming) bo'lgan boshqa mobil aloqa operatorining xizmat ko'rsatish zonasida bo'lganda boshqa mobil aloqa operatorining tarmog'idan foydalana olishini ta'minlovchi xizmat.

To'lov agenti – statsionar yoki mobil qurilmalar, to'lov terminallari/tizimlaridan foydalanib, Abonent to'lovlarini qabul qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub'ekti.

To'lov kartasi — kodlangan ma'lumotni saqlaydigan, tarmoq foydalanuvchisini identifikatsiya qilish va chaqiruvni amalga oshirish (initsiatsiya) qilish imkoniyatini beruvchi to'lov vositasi.

To'lov xizmati – to'lov xizmatini yetkazib beruvchining, shu jumladan, Operator va uchinchi shaxslar (shu jumladan, to'lov xizmatlari bozori ishtirokchisi)ning to'lov xizmatlaridan foydalanuvchiga ko'rsatiladigan xizmati.

Narxnoma – Operatorning telekommunikatsiya xizmatlari ro'yxati va narxlar shartlari tasdiqlangan hujjati.

Tomonlar – Operator va Abonent birgalikda.

Tarif – Operator tomonidan belgilangan Abonent tomonidan Operator tarmog'iga ulanishda to'lanadigan telekommunikatsiya xizmatlari o'lovchilik birligining narxi.

Tarif rejasi – Operator tomonidan Abonentga yoki Abonentlarning ma'lum guruhiga yoki ma'lum cheklangan hududda bir yoki bir nechta xizmatlaridan foydalanishni taqdim etadigan narxlar va texnik ma'lumotlar hamda shartlari majmui.

Telekommunikatsiya xizmatlarini olish uchun texnik imkoniyatlar – mazkur Ommaviy oferta shartlariga muvofiq Abonentda telekommunikatsiya xizmatlaridan foydalanish uchun zarur bo'lgan tegishli texnik vositalar va sharoitlar mavjudligi.

Telekommunikatsiya xizmatlari taqdim etilishining texnik imkoniyati – Abonentga telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish uchun Operator xizmat ko'rsatish zonasida amal qiluvchi telekommunikatsiya vositalari mavjudligi.

Telekommunikatsiya xizmatlari – bu Operatorning telekommunikatsiya tarmoqlari orqali signallarni hamda boshqa turdagi ma'lumotlarni qabul qilish, uzatish, qayta ishlash bo'yicha faoliyatining mahsuli. Telekommunikatsiya xizmatlarining to'liq ro'yxati (shu jumladan asosiy va qo'shimcha xizmatlar) Operator tomonidan amaldagi va tasdiqlangan Narxnomasi va telekommunikatsiya xizmatlari bo'yicha tariflarda belgilangan. Operatorning asosiy telekommunikatsiya xizmatlariga quyidagilar kiradi:

- mobil aloqa xizmatlari;
- ma'lumotlarni uzatish xizmatlari;
- simli telefon aloqa xizmatlari;
- telegraf aloqa xizmatlari.

Universal xizmatlar — umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmoqlari orqali barcha foydalanuvchilarga ko'rsatiladigan belgilangan sifatdagi majburiy xizmatlar to'plami (foydalanuvchilarning bu tarmoqdan foydalanishini ta'minlash, mahalliy, shaharlararo va xalqaro telefon so'zlashuvlari, telegrammalar jo'natish va boshqalar).

Uchinchi shaxslar (shu jumladan, to'lov xizmatlari bozori ishtirokchisi)ning xizmatlari - Operator tarmog'i orqali Abonentlarga Provayderlar, To'lov agentlari va boshqa uchinchi shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan To'lov xizmatlari, shuningdek, uchinchi shaxslar tomonidan Abonentlarga ko'rsatiladigan boshqa xizmatlar."

Xizmat ko'rsatish qoidalar/Qoida – Operator rasmiy saytida joylashtirilgan va amal qilayotgan O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining 2020 yil 30 iyundagi "Telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 208-mh-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish qoidalar" (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020 yil 30 iyunda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3275).

Xizmat ko'rsatish zonasi – Operator litsenziya shartnomasi asosida telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish huquqiga ega bo'ladigan va normativ-huquqiy hujjatlar bilan o'rnatilgan shartlarga javob beradigan xizmatlar sifatini ta'minlash uchun texnik imkoniyatlarga ega bo'lgan hudud.

Xizmat ko'rsatish punkti — telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha Abonent bilan shartnomalarni tuzish va xizmatlarning boshqa turlarini olish mumkin bo'lgan Operatorning statsionar savdo nuqtasi va (yoki) xizmat ko'rsatish ofisi.

Xizmatlarga abonent to'lov tizimi — Abonentning ma'lum (hisob-kitob qilinadigan) vaqt davri (oy, chorak, yil va b.) uchun to'lovlari summasi haqiqatda olingan xizmatlar hajmiga bog'liq bo'lmagan doimiy miqdor hisoblanadigan xizmatlarga haq to'lash tizimi.

Xizmatlarga haq to'lashning vaqtbay tizimi — ma'lum (hisob-kitob qilinadigan) vaqt davri uchun Abonent to'lovlari summasi axborotni uzatish va boshqa telefon aloqasi xizmatlarini olish uchun telefon tarmog'i liniyalari va inshootlaridan foydalanilgan vaqtga bog'liq bo'lgan xizmatlarga haq to'lash tizimi.

Xosting xizmatlari — Internet tarmog'ida doimiy bo'ladigan serverda axborotni joylashtirish uchun texnik resurslarni taqdim etish xizmati.

Cheklash darajalari – Operator Abonentga taqdim etiladigan xizmatlarning hajmini cheklanishi yoki xizmatlarning

taqdim etilishini to'xtatish huquqiga ega bo'ladigan Abonentning shaxsiy hisobida (balansida) eng kam pul mablag'i.

Frod – axborot texnologiyalari sohasida firibgarlik turi, jumladan, Operatorning telekommunikatsiya xizmatlaridan va resurslaridan ruxsatsiz va noqonuniy ravishda foydalanish bilan bog'liq harakatlari.

Shaxsiy (elektron) hisob raqami – Operatorning avtomatlashtirilgan hisob-kitob tizimidagi elektron fayl. Ushbu faylda Abonent hisob-kitob tizimidagi Elektron pul miqdori (keyingi o'rinlarda – Shartli summa (pul mablag'i miqdori), Operator tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar, shu jumladan, mobil elektron to'lov xizmatlari uchun avans to'lovi kiritilganligi va xizmatlar uchun sarflangan pul mablag'i haqida ma'lumot aks ettirilgan. Bitta Shartnoma doirasida Abonentga bir nechta shaxsiy (elektron) hisob raqamlari ajratilishi mumkin.

Shaxsiy kabinet – Abonentning Autentifikatsiya ma'lumotlariga ruxsatsiz kirishdan himoyalangan, Autentifikatsiya ma'lumotlari, olingan Xizmatlar hajmi haqidagi statistik ma'lumotlar, Abonent Shaxsiy hisob raqamining joriy holati va boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga olgan Operator WEB-saytidagi maxsus WEB-sahifa. Shaxsiy kabinetda aks etgan axborot ma'lumotli bo'lib hisoblanadi va ASR Operatori (Operator va Abonent o'rtasidagi avtomatlashtirilgan hisob-kitoblar)dagi axborotdan farq qilishi mumkin. Shaxsiy kabinet ko'rsatkichlari joriy, yakunlanmagan ulanish sessiyasida, sessiya yakunlanganidan keyingi ko'rsatkichlardan farq qilishi mumkin va sessiya Shaxsiy kabinet ko'rsatkichlarida qayd qilinganidan keyingina yakunlangan bo'lib hisoblanadi. Shaxsiy kabinetda Abonent aniq xizmatlarga qo'shilishi, ulardan voz kechishi, parolini o'zgartirishi yoki tiklashi, Operator tomonidan taqdim etiladigan imkoniyatlarga ulanishi mumkin. Shaxsiy kabinet funksiyalari Operator tomonidan bir tomonlama tartibda o'zgartirilishi mumkin.

Shaxsiy hisob raqami balansi – muayyan vaqtda Abonent hisob raqamidagi ikki pul mablag'lari miqdori orasidagi farq. Birinchi pul miqdori Abonent hisob raqamiga kiritilgan pul mablag'i miqdori, ikkinchisi - mazkur Shartnomada o'rnatilgan muddatda ko'rsatilgan telekommunikatsiya xizmatlari uchun Operator tomonidan Abonent hisob raqamidan yechib olingan pul mablag'i miqdoridan iborat.

eSIM — abonent qurilmasining virtual identifikatsiya moduli, uning yordamida abonent qurilmasini identifikatsiya qilish, uning mobil aloqa tarmog'idan foydalana olishi, shuningdek, abonent raqamidan ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilish ta'minlanadi.

IMEI kodi (International Mobile Equipment Identifier) yoki xalqaro o'ziga xos identifikatsiya kodi (keyingi o'rinlarda - IMEI-kod) — 15 raqamdan iborat bo'lgan va GSMA tomonidan ajratiladigan, shuningdek, tarmoqda GSM/UMTS/LTE standartlarida ishlovchi mobil aloqa abonent qurilmasini identifikatsiyalovchi raqam.

IP-adres — TCP/IP texnologiyalari bilan boshqariladigan ma'lumotlar uzatish tarmog'ida kompyuterlar yoki uzellarni identifikatsiyalashtiradigan noyob manzil.

IP-televideniye (IPTV) — televideniye, video, audio, matn, grafika va shu kabi boshqa ma'lumotlar, IP-protokoli asosidagi tarmoqlar ta'minlanadigan, sifat, xavfsizlik, interfaollik va ishonchlilikning talab qilinadigan darajasini ta'minlash maqsadida boshqariladigan multimedia xizmatlari.

IP-telefoniya — IP-texnologiyasi asosida paketlar kommutatsiyalanadigan ma'lumotlar uzatish tarmoqlari orqali nutqli axborot, jumladan, mahalliy va xalqaro aloqani ayirboshlash xizmati.

SIM/RUIM-karta (keyingi o'rinlarda - SIM karta) — ichiga mikrosxema o'rnatilgan olinuvchi identifikatsiya moduli, uning yordamida Abonent qurilmasini identifikatsiya qilish, uning mobil aloqa tarmog'idan foydalana olishi, shuningdek, Abonent raqamidan ruxsatsiz foydalanishidan himoya qilish ta'minlanadi.

Wi-Fi texnologiyasi – foydalanuvchi uskunasini telematik aloqa xizmatlariga kirish tarmog'iga simsiz ulanishini ta'minlovchi radiokanallar orqali raqamli ma'lumotlarni uzatish usuli.

Wi-Fi xizmati tashkilotchisi — ma'lumotlar uzatish tarmog'i xizmatlaridan foydalanish uchun Wi-Fi texnologiyasi bo'yicha o'zining oxirlovchi uskunalardan, mijozlar yoki tashrif buyuruvchilar hisoblanadigan tor doiradagi

foydalanuvchilarga uskunadan foydalanishni taqdim etadigan Operator yoki ma'lumotlar uzatish tarmog'i xizmatlari provayderi yoxud Abonent – yuridik shaxs.

Wi-Fi xizmatlari — ma'lumotlar uzatish tarmog'i xizmatlaridan foydalanish uchun Wi-Fi texnologiyasi bo'yicha chetki uskunalariga foydalanuvchilarning cheklangan doirasiga uskunadan foydalanishni taqdim etish. Foydalanuvchilarning cheklangan doirasini aniqlash shartlari Wi-Fi xizmati tashkilotchisi tomonidan belgilanadi. Wi-Fi xizmatini ko'rsatishda sessiyaning amal qilish davomiyligi 24 soatdan oshmasligi kerak.

Wi-Fi xizmati ko'rsatish zonasi - Operatorga kirish nuqtasidan ishonchli radiosignalini qabul qilish zonasi va Abonent/foydalanuvchi va/yoki dasturiy ta'minotning tuzilgan uskunalaridan foydalanish hududi.

2. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Operator Abonentga mazkur Ommaviy ofertada belgilangan shartlarda telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish majburiyatini oladi, Abonent esa telekommunikatsiya xizmatlariga to'lovlarni amalga oshirish majburiyatini oladi.

2.2. Tarif rejasi va telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etish shartlari hamda tartibi Operator tomonidan belgilanadi.

2.3. Abonent shartnomasi – Tarif rejasining shartlari, telekommunikatsiya xizmatlarining muayyan turi yoki bir nechta (paketli) telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish shartlari va xususiyatlari, shuningdek, Operator tomonidan telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish shartlari va tartibini qamrab oladi va mazkur Ommaviy ofertaning ajralmas qismi hisoblanadi.

2.3.1. Abonent shartnomasi yozma yoki elektron shaklda tuzilishi mumkin.

2.3.2. Operator fuqarolik-huquqiy munosabatlar sub'ekti bo'lgan Abonent - jismoniy shaxs, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar yuridik shaxs, shu jumladan, byudjet va byudjet tizimidan moliyalashtiriluvchilar, yakka tartibdagi tadbirkor yoki qonun hujjatlariga ko'ra, yuridik shaxsni tashkil etmagan fuqarolik-huquqiy munosabatlarning boshqa ishtirokchilari (xususiylar notarial idoralar, fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari), notijorat tashkilotlari, ommaviy-huquqiy tashkilot va boshqalarning huquqiy maqomidan kelib chiqib, tegishli (alohida shakldagi) Abonent shartnomasini tuzish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

2.4. Telekommunikatsiya xizmatlarining ayrim turlarini taqdim etish uchun Operator, zarur hollarda, Abonentga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xizmat ko'rsatish davriga Abonent qurilmasini taqdim etishi mumkin.

2.5. Abonentga taqdim etiladigan telekommunikatsiya xizmatlarining to'liq ro'yxati Operator tomonidan tasdiqlangan Narxnoma va Tarif rejalariga muvofiq Abonent shartnomasining ilovasida ko'rsatiladi.

2.5.1. Mobil elektron to'lov xizmatlarini taqdim etish tartibi va shartlari mazkur Ommaviy ofertaning ajralmas qismi bo'lgan ilovada belgilangan mobil moliyaviy xizmatlarni taqdim etish qoidalari bilan belgilanadi.

2.6. Tarif rejalar va telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etish shartlari hamda tartibi Operator ofislari, Operator WEB-sayti va/yoki ommaviy axborot vositalarida joylashtirib boriladi (e'lon qilinadi).

3. ABONENT SHARTNOMASINI TUZISH TARTIBI VA XIZMAT KO'RSATISH SHARTLARI

3.1. Abonent shartnomasini tuzish uchun Abonent tanlangan telekommunikatsiya xizmatlari turi hamda Mobil elektron to'lov xizmatlarining xususiyatidan kelib chiqib, Operatorga quyidagi bandlarda ko'rsatilgan tartibda hujjatlarni taqdim etadi. Abonent o'ziga tegishli hujjatlarni Operatorga/Dilerga taqdim etishi bilan Operatorga/Dilerga yoki Uchinchi shaxslar (shu jumladan, to'lov xizmatlari bozori ishtirokchisi)ga O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq Abonent haqidagi ma'lumotlarni, shu jumladan, uning shaxsiga doir ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik bildiradi va Abonent tomonidan Abonent shartnomasi imzolanishi uning shaxsiga doir ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlashga ruxsat berganligini tasdiqlovchi huquqiy harakat hisoblanadi.

3.1.1. Mobil aloqa xizmatiga ulanish uchun:

- jismoniy shaxs bo'lgan Abonentlar uchun – shaxsini tasdiqlovchi hujjat;

- yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkorlar yoki qonun hujjatlariga ko'ra, yuridik shaxsni tashkil etmagan fuqarolik-huquqiy munosabatlarning boshqa ishtirokchilari, nodavlat-notijorat tashkilotlar, ommaviy- huquqiy

tashkilot bo'lgan Abonentlar uchun – davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi tegishli guvohnoma va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa identifikatsiya hujjatlari;

3.1.2. Ma'lumotlarni uzatish tarmog'i, shu jumladan, Internet xizmatiga ulanish uchun:

- jismoniy shaxs bo'lgan Abonentlar uchun - shaxsini tasdiqlovchi hujjatni, shu jumladan, ushbu xizmat turi ko'rsatiladigan turar/noturar joyning egasi bo'lgan shaxs tomonidan – ushbu turar/noturar joyga bo'lgan mulk huquqini tasdiqlovchi hujjat, egasi bo'lmagan shaxs tomonidan – doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olinganligini tasdiqlovchi hujjat, ijaraga oluvchisi hisoblanadigan shaxs tomonidan – ijara shartnomasi nusxasini taqdim etgan holda (bunda ijara shartnomasida ijara muddati davomida, ijaraga oluvchi tomonidan telekommunikatsiya xizmatlariga ulanish huquqi ko'zda tutilgan bo'lishi lozim), 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar – o'z ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki homiylarining yozma roziligi (notarial tartibda tasdiqlangan);

- yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkorlar yoki qonun hujjatlariga ko'ra, yuridik shaxsni tashkil etmagan fuqarolik-huquqiy munosabatlarning boshqa ishtirokchilari, nodavlat-notijorat tashkilotlar, ommaviy - huquqiy tashkilot bo'lgan Abonentlar uchun – davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi tegishli guvohnoma va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa identifikatsiya hujjatlari, ushbu xizmat turi ko'rsatiladigan turar/noturar joyning egasi bo'lsa, ushbu turar/noturar joyga bo'lgan mulk huquqini tasdiqlovchi hujjat, ijaraga oluvchisi hisoblanadigan shaxs tomonidan ijara shartnomasi nusxasini taqdim etgan holda (bunda ijara shartnomasida ijara muddati davomida, ijaraga oluvchi tomonidan telekommunikatsiya xizmatlariga ulanish huquqi ko'zda tutilgan bo'lishi lozim).

3.1.3. Telefon aloqasi xizmatiga ulanish uchun:

- jismoniy shaxslar bo'lgan Abonentlar uchun - shaxsini tasdiqlovchi hujjat, shu jumladan, ushbu xizmat turi ko'rsatiladigan turar/noturar joyning egasi bo'lgan shaxs tomonidan – ushbu turar/noturar joyga bo'lgan mulk huquqini tasdiqlovchi hujjat, egasi bo'lmagan shaxs tomonidan – doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olinganligini tasdiqlovchi hujjat, ijaraga oluvchisi hisoblanadigan shaxs tomonidan – ijara shartnomasi nusxasini taqdim etgan holda (bunda ijara shartnomasida ijara muddati davomida, ijaraga oluvchi tomonidan telekommunikatsiya xizmatlariga ulanish huquqi ko'zda tutilgan bo'lishi lozim), 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar – o'z ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki homiylarining yozma roziligi (notarial tartibda tasdiqlangan);

- yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkorlar yoki qonun hujjatlariga ko'ra, yuridik shaxsni tashkil etmagan fuqarolik-huquqiy munosabatlarning boshqa ishtirokchilari, nodavlat-notijorat tashkilotlar, ommaviy- huquqiy tashkilot bo'lgan Abonentlar uchun – davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi tegishli guvohnoma va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa identifikatsiya hujjatlari, ushbu xizmat turi ko'rsatiladigan turar/noturar joyning egasi bo'lsa, ushbu turar/noturar joyga bo'lgan mulk huquqini tasdiqlovchi hujjat, ijaraga oluvchisi hisoblanadigan shaxs tomonidan – ijara shartnomasi nusxasini taqdim etgan holda (bunda ijara shartnomasida ijara muddati davomida, ijaraga oluvchi tomonidan telekommunikatsiya xizmatlariga ulanish huquqi ko'zda tutilgan bo'lishi lozim).

3.1.4. Telekommunikatsiya xizmatlari (asosiy yoki qo'shimcha telekommunikatsiya xizmatlari)ning turi va xususiyatidan kelib chiqqan holda, Operator Abonentdan qo'shimcha hujjatlarni so'rab olishi mumkin.

3.2. Abonent Qoidaga va mazkur Ommaviy oferta shartlariga muvofiq tegishli Telekommunikatsiya xizmatini olish uchun yozma ravishda (bevosita o'zi yoki vakil orqali Operator/Diler ofisiga murojaat qilish orqali) yoki elektron shaklda ariza beradi.

3.2.1. Abonent elektron shakldagi arizani Operatorning rasmiy veb-sayti orqali interaktiv usulda yuborishi mumkin.

3.2.2. Bevosita yoki elektron shaklda ariza bilan murojaat qilinganda, Operatorga yoki Dilerga quyidagi ma'lumotlar taqdim qilinishi kerak:

- familiyasi, ismi, otasining ismi, turar joyi, shaxsini tasdiqlovchi hujjat rekvizitlari (seriyasi, raqami va JShShIR) — jismoniy shaxslar uchun;

- nomi (firma nomi), bank rekvizitlari, joylashgan manzili, STIR — yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar yoki qonun hujjatlariga ko‘ra, yuridik shaxsni tashkil etmagan fuqarolik-huquqiy munosabatlarning boshqa ishtirokchilari, nodavlat- notijorat tashkilotlar, ommaviy-huquqiy tashkilot va boshqalar uchun);
- bog‘lanish uchun ma’lumotlar (telefon raqami, elektron pochta manzili — agar mavjud bo‘lsa);
- telekommunikatsiya xizmatlaridan foydalanish rejalashtirilayotgan manzil (mobil aloqa xizmatidan tashqari).

3.2.3. Mobil aloqa xizmatini ko‘rsatish uchun Abonent shartnomasi – faqat Abonent (jismoniy shaxs uchun) shaxsan o‘zi bo‘lganda va u tomonidan shaxsini tasdiqlovchi hujjatning asl nusxasi taqdim etilganda yoki uning vakili (notarial tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma asosida) shaxsan o‘zi bo‘lganda va u tomonidan shaxsini tasdiqlovchi hujjatning asl nusxasi taqdim etilganda tuziladi. Yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar yoki qonun hujjatlariga ko‘ra, yuridik shaxsni tashkil etmagan fuqarolik-huquqiy munosabatlarning boshqa ishtirokchilari, nodavlat- notijorat tashkilotlar, ommaviy-huquqiy tashkilot va boshqalar qonun hujjatlariga muvofiq rasmiylashtirilgan ishonchnoma asosida o‘z vakillari orqali murojaat qilishi mumkin.

3.2.3.1. O‘zbekiston Respublikasidagi aeroportlar, vokzallar hamda turist-axborot markazlari hududlarida chet el fuqarolari — sayyohlar (turistlar) bilan ushbu xizmatlarni ko‘rsatish uchun Abonent shartnomasini tuzish soddalashtirilgan tartibda amalga oshiriladi. Xususan, chet el fuqarolari — sayyohlar (turistlar)dan turar joyi (shu jumladan, vaqtinchalik yashash joyi) ko‘rsatilishi talab etilmaydi. Abonent shartnomasiga faqatgina chet el fuqarolari — sayyohlar (turistlar) uchun, ularni qaysi mamlakatdan va qancha muddatga tashrif buyurganliklari haqidagi ma’lumotlar kiritiladi. Chet el fuqarolari — sayyohlar (turistlar)ga xizmat ko‘rsatish davri ularning O‘zbekiston Respublikasida bo‘lishi muddati bilan cheklanadi. Bunda O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida mazkur SIM-kartalar orqali rouming xizmatlari ko‘rsatilmaydi. Bitta chet el fuqarosi pasportiga ko‘pi bilan 3 (uch) ta Abonent raqami rasmiylashtirilishi mumkin.

3.2.3.2. Operator/Diler ofisiga kelish imkoniyatiga ega bo‘lmagan Abonentning (jismoniy shaxslar uchun) yakka tartibdagi talabnomalari bo‘yicha yashash joyiga borib, Operator tomonidan Abonent (mobil aloqa xizmati uchun) bilan Abonent shartnomasi tuziladi. Bunda Abonent shartnomasini tuzish imkoniyati (asoslar) Operator tomonidan oldindan Abonentning murojaatini ko‘rib chiqish mobaynida hal etiladi.

3.2.3.3. Qishloq, uzoqda joylashgan, yetib borish qiyin bo‘lgan olis aholi punktlarida Abonentlarga xizmat ko‘rsatish uchun Operator tomonidan maxsus jihozlangan transport vositalarida Abonent shartnomasi (mobil aloqa xizmati uchun) tuzilishi mumkin.

3.2.3.4. Ilgari tuzilgan amaldagi shartnomalar bo‘yicha Operatorning 5 (Besh) ta va undan ortiq raqamlariga ega bo‘lgan Abonent — jismoniy shaxs bilan Abonent shartnomasini (mobil aloqa xizmat bo‘yicha) tuzish faqat Operatorning ofislarida amalga oshiriladi. Operator 5 (Besh) ta va undan ortiq raqamlarini olish uchun Abonentlar — yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar yoki qonun hujjatlariga ko‘ra, yuridik shaxsni tashkil etmagan fuqarolik-huquqiy munosabatlarning boshqa ishtirokchilari, nodavlat-notijorat tashkilotlar, ommaviy-huquqiy tashkilot va boshqalar bilan Abonent shartnomasini (mobil aloqa xizmat bo‘yicha) tuzish ushbu miqdordagi raqamlarga ehtiyoj yozma ravishda asoslab berilganda Operatorning ofisida amalga oshiriladi.

3.3. Abonent shartnomasi Abonent va Operator o‘rtasida Operator/Dilerning ofisida yoki O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo‘lmagan boshqa tartib/usulda yoki joyda tuziladi.

3.4. Abonent shartnomasi mazkur Ommaviy oferta shartlari va qonun hujjatlariga muvofiq Operator tomonidan Abonent shartnomasini tuzish uchun texnik imkoniyati bo‘lganda, arizalarni berish navbati tartibida tuziladi.

3.5. Abonent shartnomasini tuzishda Tomonlar texnik imkoniyatlarning mavjudligi va Telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etish imkoniyatini belgilaydi.

3.5.1. Telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etish uchun texnik imkoniyatlar mavjud bo‘lmagan taqdirda,

Abonentda texnik imkoniyatlar paydo bo'lguniga qadar, biroq Abonent shartnomasi tuzilgan vaqtdan 15 (o'n besh) kalendar kunidan ko'p bo'lmagan muddatga, ushbu shartnoma o'z kuchini saqlab qoladi.

3.5.2. Elektron shaklda ariza bilan murojaat qilinganda, Operator tomonidan murojaatchiga 1 (bir) ish kuni ichida Abonent shartnomasini tuzish imkoniyati mavjud bo'lganda, ushbu shartnomani tuzish uchun aniq manzil va vaqt ko'rsatilgan javob yoki bunday shartnoma tuzish imkoniyati mavjud bo'lmaganda, buning sabablari ko'rsatilgan javob yuboriladi.

3.5.3. Texnik imkoniyatlar mavjud bo'lmagan taqdirda, ushbu bandeda ko'rsatilgan muddatlar tugashi bilan, Abonent shartnomasi o'z kuchini yo'qotadi.

3.5.4. Telefon aloqasi xizmatiga ulanish bo'yicha – telefon aloqa kabellarida bo'sh Abonent liniyalarining yo'qligi Abonent shartnomasini tuzishga to'sqinlik qilsa, yetishmaydigan aloqa liniyalarini o'tkazish bo'yicha qurilish ishlari, ariza beruvchining mablag'lari hisobidan (mazkur ishlar uning hisobidan bajarilishiga rozilik berilganda), shu jumladan, Operator tomonidan berilgan texnik shartlar asosida pudrat shartnomasini tuzish yo'li orqali o'tkazilishi mumkin. Bunda texnik shartlar 3 (uch) ish kuni davomida arizachiga taqdim etiladi.

3.6. Telefon tarmog'idan foydalana olishni ta'minlash ishlarini bajarish muddatlari:

- texnik imkoniyatni o'rganish va texnik imkoniyat bo'lmagan taqdirda, ariza beruvchiga asoslangan rad etishning aniq sabablari ko'rsatilgan javobini berish **7 (yetti)** kun davomida amalga oshiriladi;

- texnik imkoniyat bo'lganda, Abonent shartnomasi tuzilgan kundan boshlab, **10 (o'n)** ish kunida ulanish amalga oshiriladi;

- texnik imkoniyat bo'lmaganda, yetishmaydigan aloqa liniyalari ariza beruvchining hisobidan o'tkazilishini hisobga olgan holda — pudrat shartnomasi tuzilgan sanadan boshlab, **180 (bir yuz sakson)** kun davomida amalga oshiriladi. Telefon tarmog'idan foydalana olishni ta'minlash ishlari bajarilganidan keyin, Operator ariza beruvchi bilan Abonent shartnomasini tuzadi.

Mazkur muddatda ko'rsatilgan tartib va muddatlar Ma'lumotlarni uzatish tarmog'i, shu jumladan, Internet xizmatiga ulanish uchun ariza kelib tushganda tatbiq etiladi.

3.6.1. Agar qurilgan telekommunikatsiya vositalari va inshootlari Operatorga texnik xizmat ko'rsatish, foydalanishga yoki mulkiga berilmagan bo'lsa, u holda ularni ekspluatatsiya qilish O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining normativ hujjatlariga muvofiq Abonent tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi va ushbu vosita yoki qurilmalar uchun Operator javobgar hisoblanmaydi.

3.7. Telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etish va Aksept boshlanishi (Abonentning mazkur Ommaviy oferta shartlarini qabul qilishga roziligi) Abonent tomonidan Dastlabki avans to'lovi kiritilishi hisoblanadi.

3.8. Telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatilishiga texnik imkoniyatlar mavjud bo'lganda, Tomonlar o'rtasida Abonent shartnomasi imzolangan vaqtdan boshlab, Abonent tomonidan 7 (yetti) kalendar kuni mobaynida Dastlabki avans to'lovi kiritilmaganligi Abonentning Abonent shartnomasini tuzishdan voz kechganligini anglatadi. Agar mazkur bandeda belgilangan Dastlabki avans to'lovi o'rnatilgan muddat mobaynida to'liq hajmda kiritilmagan bo'lsa, mazkur Ommaviy ofertaning 12.5-bandida belgilangan tartibda qisman kiritilgan pul miqdori Abonentga qaytarib beriladi.

3.8.1. Abonent, Operator bilan Abonent shartnomasini tuzishi, Abonentga tegishli binodan, jumladan, umumiy foydalanish binosidan, shuningdek, uy-joyining tayanch konstruksiyasi, mexanik, elektrik va bino (ofis) doirasida yoki undan tashqari, Operator tomonidan xizmat ko'rsatilishiga ehtiyojlarni ta'minlash uchun mo'ljallangan qurilishlardan, shu jumladan, boshqa uskunalardan Operator tomonidan foydalanishga rozilik bildirgan hisoblanadi.

3.9. Operator telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etishda texnik imkoniyatlarni hisobga olib, ko'rsatiladigan xizmatlar ro'yxatini, shu jumladan, asosiy yoki qo'shimcha xizmatlar turini mustaqil belgilaydi.

3.10. Mazkur Ommaviy oferta shartlarida Operator tomonidan ko'rsatiladigan telekommunikatsiya xizmatlari Qoida va muayyan xizmat turi bo'yicha belgilangan shartlarga muvofiq tartibga solinadi.

3.11. Abonent tanlangan muayyan telekommunikatsiya xizmatlarini olish uchun tegishli texnik imkoniyatlarga ega bo'lishi lozim. Bunda, Operator Abonent oldida texnik vositalar (sozlash bo'yicha xizmatlar) va telekommunikatsiya xizmatlarini qabul qilish shartlarini taqdim etish majburiyatini o'z zimmasiga olmaydi.

3.12. Abonentni identifikatsiya qilish, telekommunikatsiya xizmatlariga ulash va Shaxsiy kabinetdan foydalanishiga imkoniyat yaratib berish Abonentning shaxsiy autentifikatsiya ma'lumotlari yordamida amalga oshiriladi.

3.13. Abonentning shaxsiy autentifikatsiya ma'lumotlari Abonentga Operator ofisi/Diler ofisida taqdim etiladi/biriktiriladi.

3.14. Operator tomonidan ko'rsatiladigan telekommunikatsiya xizmatlari asosiy va qo'shimcha xizmatlarga bo'linadi. Aloqa va axborotlashtirish sohasidagi ijroiya organining normativ-texnikaviy hujjatlarini inobatga olgan holda, Litsenziya asosida, hamda Operatorga yoki O'zbekiston Respublikasida umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tizimini tashkil qiluvchi telekommunikatsiya tarmoqlari Operatorlariga tegishli bo'lgan tarmoqlari va aloqa vositalarining texnika imkoniyatlari bilan belgilanadi va Operatorning narxnomasi va tarif rejalarida ko'rsatiladi. Asosiy va qo'shimcha telekommunikatsiya xizmatlarning ro'yxati Abonentlarning belgilangan tartibda oldindan xabardor qilinishi, hamda Operatorning narxnomasi va tarif rejalariga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar bilan bog'liq ravishda o'zgarishi mumkin.

3.15. Telekommunikatsiya xizmatlariga ulanishni taqdim etishda Abonentga asosiy telekommunikatsiya xizmatlari taqdim etiladi. Qo'shimcha telekommunikatsiya xizmatlari asosiy telekommunikatsiya xizmatlari bilan qo'shimcha sifatida ham, tanlab olingan Tariflar/Tarif rejalariga, Qoidalar va tanlab olingan telekommunikatsiya xizmatlari shartlariga muvofiq taqdim etiladi.

3.16. Abonentning asosiy yoki qo'shimcha telekommunikatsiya xizmatlariga ulanish limiti ishlab chiqilganidan keyin Abonent tomonidan tanlab olingan Tarif rejasida belgilangan tartibda hisob raqamining balansi ijobiy bo'lganida taqdim etiladi.

3.17. Hisob raqamining balansi nol yoki salbiy holatida (qarzdorlik mavjud bo'lganida) Operator tomonidan Abonent tegishli to'lovni kiritguniga va hisobini pul mablag'i bilan to'ldirguniga qadar asosiy va qo'shimcha telekommunikatsiya xizmatlariga ulanish to'xtatiladi.

3.18. Telekommunikatsiya xizmatlari Operator tomonidan Abonentga sutkasiga 24 (yigirma to'rt) soat, har kuni, tanaffussiz profilaktika va ta'mirlash ishlaridan tashqari ko'rsatiladi. Profilaktika ishlari va ta'mirlash ishlari olib borilishi haqida Abonent Operator tomonidan oldindan xabardor qilinadi.

3.19. Profilaktika va ta'mirlash ishlari olib borilishi, Yirik avariya sodir bo'lishi oqibatlarini bartaraf etish hamda Abonent qurilmalarining nosozligi Telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatishdagi tanaffus va/yoki xizmat ko'rsatilishi uchun belgilangan muddatlarning buzilishi bo'lib hisoblanmaydi.

3.20. Operator faqat Texnik imkoniyat bo'lmaganda Abonent shartnomasini tuzishdan bosh tortish huquqiga ega. **Quyidagi hollarda Operator tomonidan Abonent shartnomasini tuzilishi rad etilishi mumkin:**

3.20.1. Arizachi voyaga yetmagan yoshda bo'lganda (14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarning o'z ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki homiylarining notarial tartibda tasdiqlangan yozma roziligi bo'lgan hollar bundan mustasno).

3.20.2. Telekommunikatsiya xizmatlaridan foydalanish rejalashtirilayotgan manzil Operatorning xizmat ko'rsatish

3.20.3. Arizachi tomonidan ma'lumotlar to'liq taqdim etilmaganda yoki arizachi tomonidan taqdim qilingan ma'lumotlarning soxtaligi yoxud noto'g'riligi aniqlanganda.

3.20.4. Telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etish natijasida davlat mudofaasi qobiliyatiga, odamlarning salomatligi va xavfsizligiga tahdid solish xavfi bo'lsa.

3.20.5. Telekommunikatsiya xizmatlarini olish maqsadida murojaat qilgan arizachida muayyan xizmatlarga ulanish uchun Texnik imkoniyatlari mavjud bo'lmasa.

3.20.6. Operatorlarda, muqaddam tuzilgan Abonent shartnomalari bo'yicha ko'rsatilgan Telekommunikatsiya xizmatlari uchun arizachining Operator oldida qoplanmagan qarzdorligi yoki buni tasdiqlovchi ma'lumotlar mavjud bo'lsa.

3.20.7. Operatorlarda, arizachi tomonidan xizmatlarga ulanish uchun taqdim etilgan Abonent qurilmasi boshqa Abonent tomonidan yo'qotilganligi (qidiruvda bo'lganligi) yoki ushbu Abonent qurilmasi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sertifikatlanmaganligi haqida ma'lumot mavjud bo'lsa.

3.21. Quyidagi holatlarda Operator tomonidan Telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish to'xtatiladi:

3.21.1. Abonent tomonidan telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish sohasini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga va mazkur Ommaviy oferta/Abonent shartnomasining shartlariga rioya qilinmasa yoki ular buzilishi hollari aniqlanganda.

3.21.2. Agar Abonent qurilmasining ishlashi, shuningdek, Abonentning xatti-harakatlari Operator tarmog'i, texnik vositalari va/yoki dasturiy ta'minotiga zarar yetkazishi mumkin deb hisoblansa yoki bunday xavf amalda vujudga kelsa.

3.21.3. Abonent tomonidan Operator tarmog'i rekvizitlaridan ruxsat etilmaydigan/qonunga xilof ravishda foydalanib, Operator tarmog'ida dasturiy ta'minot, uskunalar (vositalar, apparatlar) va axborot resurslariga, ma'lumotlar uzatish tarmog'iga ulanishga urinish sodir etilsa yoki bunday xavf bo'lsa.

3.21.4. Qoidaga va Ommaviy oferta shartlariga muvofiq Abonentni xabardor qilish orqali Operator tarmog'ida rejali texnologik ishlar, ta'mirlash, profilaktik tadbirlar o'tkazish davomida.

3.21.5. Abonent tomonidan Telekommunikatsiya xizmatlari uchun Avans to'lovini/Abonent to'lovini kiritmaslik yoki Abonent shartnomasida belgilangan vaqtda kiritilmagan hollarda. Bunda Abonent, Abonent shartnomasida nazarda tutilgan xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish majburiyatidan ozod etilmaydi.

3.21.6. Telekommunikatsiya xizmatlari Abonent tomonidan ixtiyoriy ravishda to'xtalishi mumkin, bunda to'xtatishni faollashtirish telekommunikatsiya xizmatlarining turi va tariflar shartlari bilan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

3.21.7. Abonent tomonidan Abonent qurilmalaridan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid ravishda pullik xizmatlar ko'rsatish uchun foydalanilganda.

3.21.8. Tarmoqda boshqa Abonentlarni obro'sizlantiruvchi axborotlar tarqatilganda, muayyan materiallar (spam va boshqalar) va viruslar tarmoq orqali keng tarqatilganda, tarmoqdan foydalanish qoidalari buzilganda, litsenziyasiz dasturiy ta'minot yoki musiqa yoxud videolar tarqatilganda, IP-manzillar qalbakilashtirilganda.

3.21.9. Proksi-server, virtual xususiy tarmoq (VPN) serveri sifatida xosting xizmatlaridan foydalanilganda, shuningdek, xosting-akkauntida proksi-server va VPN bilan bog'liq dasturiy ta'minot o'rnatilganda.

3.21.10. Abonent mazkur Ommaviy ofertaning 3.1-bandiga muvofiq, o'zining shaxsiga doir ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash bo'yicha bergan roziligini bekor qilganida. Bunda Operator Abonentga to'liq yoki qisman xizmat ko'rsatishni to'xtatishi mumkin.

3.22. Abonent tomonidan mazkur Ommaviy oferta/Abonent shartnomasi shartlari buzilganda va O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa holatlarda, shuningdek, Qoidalariga muvofiq, Abonentga Operator tarmog'iga qayta ulanish Operator tariflari bo'yicha buzilish holatlari to'la bartaraf etilganidan keyin taqdim etiladi, bunda Abonent tomonidan ilgari belgilangan Tarif/Tarif rejasining saqlanishi kafolatlanmaydi.

3.23. Wi-Fi xizmatini ko'rsatish tartibi:

3.23.1. Operator cheklangan yoki cheklanmagan doiradagi Abonent/foydalanuvchilarga bepul yoki pullik (pullik) asosda Wi-Fi xizmatlarini taqdim etishi mumkin. Abonent/foydalanuvchilarning cheklangan doirasini aniqlash shartlari Wi-Fi xizmati tashkilotchisi tomonidan belgilanadi. Wi-Fi xizmatlari sessiya davomiyligi 24 (yigirma to'rt) soatdan oshmaydi.

3.23.2. Wi-Fi xizmati ko'rsatilganda Abonent/foydalanuvchi o'rtasida tuziladigan shartnomada Wi-Fi xizmatini taqdim etish to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi, shuningdek Abonent/foydalanuvchining shaxsini aniqlash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar aniqlanadi.

3.23.3. Abonent/foydalanuvchining shaxsini identifikatsiya qilish Shaxsni tasdiqlovchi hujjatdagi ma'lumotlar asosida amalga oshirilgan mobil telefon raqami orqali amalga oshirilishi mumkin.

3.23.4. Abonent/foydalanuvchini mobil telefon raqami orqali identifikatsiya qilish uning mobil telefon raqamiga SMS-xabar orqali bir martalik parol yuboriladi va Abonent/foydalanuvchi autentifikatsiya qilinadi. Shu bilan birga, bir martalik parolni maksimal faoliyat vaqti 10 (o'n) daqiqa davomida saqlanadi.

3.23.5. Operator Wi-Fi xizmatini ko'rsatishda Abonent/foydalanuvchining Shaxsiy ma'lumotlari va uning telekommunikatsiyalar tarmoqlari orqali uzatiladigan xabarlarining sir saqlanishini belgilangan tartibda bajarilishini ta'minlaydi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

3.23.6. Operator o'z ixtiyorida (bevosita boshqaruvi va nazorati ostida) bo'lmagan ma'lumotlar uzatish tarmog'ining resurslari, serverlari va segmentlari mazmuni, ulardan foydalanish imkoniyati va ishlash qobiliyati uchun javobgar bo'lmaydi.

4. OPERATORNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Operator Telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatishda quyidagi asosiy huquqlarga ega:

4.1.1. Abonentlarga Telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish.

4.1.2. Abonentning aybi bilan Operator/telekommunikatsiya tarmoqlarida yuz bergan hodisalar natijasida yetkazilgan zarar o'rnini qoplashni talab qilish.

4.1.3. Qonun hujjatlariga muvofiq yuridik va jismoniy shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilish.

4.1.4. Abonent Qoidalarini yoki Ommaviy oferta/Abonent shartnomasi shartlarini buzganligi yoki unga ko'rsatilgan Telekommunikatsiya xizmatlari uchun belgilangan muddatda haq to'lamaganligi sababli, uning xatti-harakatlari bo'yicha qonun hujjatlariga muvofiq da'vo qilish.

4.1.5. Operator yoki telekommunikatsiya tarmoqlarida xabarlarni uzatishda xavfsizlikni ta'minlash va Abonent tarmog'ida ko'rsatiladigan xizmatlarning tegishli sifatini ta'minlash maqsadida qonun hujjatlariga muvofiq Telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatilishi to'xtatilishini nazarda tutadigan texnik tadbirlarni o'tkazish.

4.1.6. Tarif/Tarif rejasida sutkaning turli vaqtlari, hafta kunlari, dam olish, bayram (ishlanmaydigan) va boshqa kunlar bo'yicha, shuningdek, ko'rsatilayotgan Telekommunikatsiya xizmatlarining to'plami va hajmi bo'yicha differensiyalangan tariflarni belgilash.

4.1.7. Telekommunikatsiya xizmatlarining ayrimlari uchun (masalan, USB-modemlar, elektr energiyasi/suv/gaz hisoblagichlari, onlayn-to'lov terminallari, GSM, IP yoki SMS shlyuzlar yoki uskunaning boshqa turlarida foydalanish uchun, shuningdek, muayyan toifalardagi shaxslarga taqdim etiladigan) maxsus Tariflar/Tarif rejalarini belgilash.

4.1.8. Zo'ravonlik, konstitutsion qurilishni o'zgartirishga chorlovchi mazmundagi axborotlar tarqatilishiga yo'l qo'ymaslik, urush, zo'ravonlik va axloqsizlik, diniy va milliy kelishmovchiliklarni qo'zg'atishni, inson qadr-qimmatini pastga urishni targ'ib qilish va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida taqiqlangan boshqa axborotlar tarqatilishiga qarshi va buni oldini olish maqsadida zarur axborot resurslar himoyasini ta'minlashga yo'naltirilgan tashkiliy va texnik harakatlarni amalga oshirish.

4.1.9. Abonentga xizmat ko'rsatish muddatini o'zgartirish va to'xtatish, Abonentni faollashtirish umumiy muddatining mavjud emasligi haqidagi xabar/axborotni Operator rasmiy WEB-saytida joylashtirish, ommaviy axborot vositalarida chop etish yoki Operatorga mumkin bo'lgan boshqa usullar bilan Abonentlarga yetkazish.

4.1.10. Mazkur Ommaviy oferta/Abonent shartnomasi, Tariflar/Tarif rejasi shartlariga o'zgarishlarini bir tomonlama tartibda kiritish, ushbu o'zgarishlar haqidagi ma'lumotni kamida **10 (o'n) kundan 15 (o'n besh)** kungacha bo'lgan vaqt mobaynida Operatorning rasmiy WEB-saytiga joylashtirish yoki Operator uchun har qanday qulay boshqa usul bilan Abonentlarni xabardor qilish.

4.1.11. Abonentlarni Operatorning rasmiy WEB-saytida e'lon berish yoki boshqa mumkin bo'lgan usullar bilan xabardor qilish shartiga qat'iy amal qilgan holda, tegishli tijorat tadbirlari yoki aksiyalarni o'tkazish orqali har qanday vaziyatda taqdim etiladigan xizmat shartlarini o'zgartirish.

4.1.12. Abonentga taqdim etilgan Abonent raqamini bir tomonlama, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda hamda Abonentni xabardor qilish shartiga qat'iy amal qilgan holda, o'zgartirish.

4.1.13. Ma'lumotlar uzatish va tegishli xizmatlar sifatini, xavfsizligini ta'minlash maqsadlarida, normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq Abonentga xizmat ko'rsatishini to'xtatishni nazarda tutuvchi texnik tadbirlar o'tkazish.

4.1.14. Abonent hisob raqamida yetarli miqdorda mablag'lar mavjud bo'lganida, Abonentning mavjud qarzdorligini qoplash uchun mavjud pul mablag'larini Abonent hisobidan yechib olish.

4.1.14.1. Operator yoki uchinchi shaxslar, shu jumladan Mobil elektron to'lov xizmatlarini avanslash hisobiga ko'rsatilgan xizmatlar uchun Abonent tomonidan ortiqcha to'langan pulni hisobga olish yoki Abonent shartnomasi bekor qilinganda Abonentga uning arizasi bo'yicha bunday mablag'larni qaytarish.

4.1.15. Abonent aybi bilan o'ziga yetkazilgan har qanday zararni qonunchilikda o'rnatilgan tartibda qoplanishini talab qilish.

4.1.16. Abonent-yuridik shaxsning kafolat xatidagi majburiyati asosida (jismoniy shaxs bo'lgan Abonentlarga tatbiq etilmaydi) Shaxsiy (elektron) hisob raqami balansi salbiy bo'lganida, **1 (bir) kalendar oydan** oshmagan muddatga xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini taqdim etish.

4.1.17. Texnologik ishlar va boshqa ish turlarini bajarish, Operator tarmog'ini modernizatsiyasini amalga oshirish va muayyan xizmat ko'rsatishning texnik ixtisoslashuvidan kelib chiqib, dasturiy vositalarni yangilash, bunda, Operator bir tomonlama tartibda dasturiy ta'minot sozlanishi ko'rsatkichlarini belgilaydi.

4.1.18. Xizmat ko'rsatish sifatini va ishonchligini oshirish maqsadida bir tomonlama tartibda xizmat ko'rsatish

texnik ko'rsatkichlarini o'zgartirish, jumladan, taqdim etilayotgan dastur, kutubxona, funksiya, ma'muriylashtirish vositalari ro'yxatini o'zgartirish.

4.1.19. FTTX-texnologiyasida ishlovchi Abonent qurilmalari orqali ma'lumotlarni uzatish tarmog'i, shu jumladan, Internet xizmatlari doirasida keng polosali ulanish xizmatlarini ko'rsatish vaqtida Operatorga kirish nuqtasi radiosignallari orqali Internet xizmatlaridan boshqa Abonentlarga (foydalanuvchilarga) xizmat ko'rsatish/ularga xizmatlardan foydalanish imkoniyatini taqdim etish. Bunda Operatorning kirish nuqtasi radiosignallari, xizmatlardan foydalanib kelayotgan dastlabki Abonentga ko'rsatilayotgan xizmat sifatiga ta'sir qilinmasligi Operator tomonidan kafolatlanadi.

4.1.19.1. Operator axborot-ma'lumot mazmunidagi, xizmatlar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hamda reklamali SMS-xabarnomalarni Kompaniya nomidan yoki u bilan hamkorlik qiluvchi uchinchi shaxslar nomidan abonentga yuborish huquqiga ega.

4.1.20. Quyidagi hollarda shaxsiy kabinetga kirishni cheklashga:

4.1.20.1. Abonent – yuridik shaxsni tugatish to'g'risidagi ochiq manbalarda rasmiy axborot mavjud bo'lganda/aniqlanganda (xizmatlarga yakka tartibdagi tadbirkor yoki qonun hujjatlariga ko'ra, yuridik shaxsni tashkil etmagan fuqarolik-huquqiy munosabatlarning boshqa ishtirokchisi, nodavlat-notijorat tashkilot, ommaviy- huquqiy tashkilot va boshqa huquqiy maqomda ulangan Abonentlarga ham tatbiq etiladi).

4.1.20.2. Abonent Shaxsiy kabineti orqali FROD hisoblanuvchi harakatlar sodir etganligi aniqlangan taqdirda.

4.1.21. O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan, mazkur Ommaviy oferta/Abonent shartnomasi yoki Qoidaga muvofiq Operator boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4.2. Operator telefon aloqasi xizmatlarini ko'rsatishda quyidagi qo'shimcha huquqlarga ega:

4.2.1. Mazkur Ommaviy ofertada belgilangan muddatlarda mahalliy va xalqaro telefon aloqasi xizmatlariga haq to'lanmaganda, bu haqda Abonentni uzib qo'yishdan 10 (o'n) kun oldin telefon, yozma yoki elektron xabar bilan elektron pochta manzilga yoki qisqa matnli (SMS) xabar yuborish orqali xabardor qilish.

4.2.2. Abonent tomonidan Operatorga tegishli telekommunikatsiya uskunasi/vositasini normal ishlashining buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan Abonent qurilmasini ekspluatatsiya qilish qoidalari/talablari buzilganda, Telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatilishini to'xtatish.

4.2.3. Abonentning telefon aloqasi xizmatidan foydalanishining vaqtincha to'xtatib qo'yilishiga olib kelgan buzilishlar bartaraf etilganidan va ko'rsatilgan xizmatlar uchun Abonent tomonidan to'lov kiritilganidan, shuningdek, Abonentning aybi bilan Abonent qurilmasi ishlamay turgan vaqt uchun Abonent to'lovi kiritilganidan keyin **24 (yigirma to'rt) soat** davomida foydalanishni tiklash amalga oshiriladi. Bunda telefon aloqasi xizmatidan foydalanish tiklanganligi uchun to'lov undirilmaydi.

4.2.4. Agar Abonent telefon aloqasidan foydalanish to'xtatib qo'yilganidan keyin **60 (oltmish) kalendar** kundan ortiq muddat ichida telefon aloqasi xizmatlariga haq to'lash bo'yicha qarzdorligini bartaraf etmasa, Operator ushbu Ommaviy ofertaga muvofiq bir tomonlama tartibda Abonent shartnomasini bekor qilish huquqiga ega. Bu haqda Operator Abonentga mazkur bandning 4.2.1-kichik bandida belgilangan usullardan biri orqali kamida **10 (o'n) kalendar** kun oldin xabar berilishini ta'minlaydi.

4.3. Operator mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatishda quyidagi qo'shimcha huquqlarga ega:

4.3.1. Abonent tomonidan mobil aloqaning ayrim xizmatlari yoki mobil aloqa xizmatlari to'plamlari uchun maxsus tariflardan (tarif rejalaridan) Operatorning belgilangan talablariga muvofiq maqsadli foydalanilishini nazorat qilish. Bunda Abonent tomonidan xizmatlardan maqsadsiz foydalanish holatlari aniqlanganda, Abonentga xabar qilingan holda, boshqa tarif rejasiga o'tkazish.

4.3.2. Abonent tomonidan Operator tarmog'ida ovozli trafikni o'tkazish tartibi buzilishlari qayd etilgan hollarda, Abonentga Telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatilishini to'xtatish.

4.3.3. Abonent tomonidan ketma-ket **90 (to'qson) kalendar kun** mobaynida mobil aloqa xizmatlarini olish huquqini beradigan tranzaksiyalar amalga oshirilmaganda, mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatishni to'xtatish. Mazkur kichik band qoidasi faqat Tarif/Tarif rejasiga muvofiq Abonent to'lovi talab etilmaydigan mobil aloqa xizmatlariga tatbiq etiladi.

4.4. Operator ma'lumotlarni uzatish tarmog'i, shu jumladan, Internet xizmatlarini ko'rsatishda quyidagi qo'shimcha huquqlarga ega:

4.4.1. Abonent tomonidan ma'lumotlar uzatish tarmog'ining foydalanilgan veb-resurslarining hisobga olinishini (log-fayllarining yuritilishini) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil qilish.

4.4.2. Operatorni ogohlantirmasdan hamda noqonuniy ravishda ma'lumotlar uzatish tarmog'iga GSM, IP yoki SMS-shlyuzlar ulanganda, shu jumladan, ma'lumotlar uzatish tarmog'ida maxsus apparat-dasturiy vositalarini o'rnatish yo'li bilan noqonuniy foydalanish holatlari aniqlanganda, xizmatlar ko'rsatishni bir tomonlama to'xtatish. Bunda Operator mazkur holatlar bo'yicha qonun hujjatlariga muvofiq huquqni muhofaza qilish organlariga murojaat qiladi.

4.5. Telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatishda Operatorning umumiy majburiyatlari:

4.5.1. Ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini amaldagi standartlar, qoidalar, normalar va normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq bo'lishini ta'minlash.

4.5.2. Telekommunikatsiya tarmoqlari bo'ylab uzatiladigan telefon so'zlashuvlari va barcha turdagi ma'lumotlarning sir saqlanishini ta'minlash.

4.5.3. Abonentlarga Telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish shartlari va tartibi, shu jumladan, xizmatlar uchun tariflar o'zgarganligi to'g'risidagi batafsil ma'lumotlarni belgilangan muddatlarda oldindan taqdim etish hamda ma'lumotlarni tezkorlik bilan yangilash.

4.5.4. Telekommunikatsiya tarmoqlaridan noqonuniy/ruxsatsiz foydalana olish holatlariga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish.

4.5.5. Abonentlarga mazkur Ommaviy Oferta/Abonent shartnomasi shartlari bajarilmaganligi yoki tegishli darajada bajarilmaganligi, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati qonun hujjatlari talablariga muvofiq bo'lishini ta'minlanmaganligi hamda Abonentning roziligisiz ko'rsatilgan xizmatlar uchun qonun hujjatlariga muvofiq zarar o'rnini qoplash.

4.5.6. Telekommunikatsiya xizmatlarini Abonentlarga mazkur Ommaviy Oferta/Abonent shartnomasi shartlarida kechayu-kunduz ko'rsatilishini ta'minlash.

4.5.7. Abonentlarni Operator tarmoqlarida bo'ladigan yirik avariylar, ularni ta'mirlash/rekonstruksiya qilish to'g'risida hamda ishlarni tugatishning taxmin qilingan muddatlari to'g'risida ommaviy axborot vositalarida (keyingi o'rinlarda – OAV), Operator rasmiy veb-saytida yoki SMS – xabar orqali xabardor qilish.

4.5.8. Operator xodimlari tomonidan Abonent bilan muomala qilish etikasiga rioya qilinishini, telefon orqali so'zlashuvda o'z lavozimini, familiyasi yoki shaxsiy raqamini aytilishini ta'minlash.

4.5.9. Abonent murojaat qilganda, uning talabiga ko'ra, shaxsiy hisob raqamining holati va qarzdorligi mavjudligi to'g'risida xabardor qilish.

4.5.10. Axborot resurslari himoya qilinishini ta'minlashga, O'zbekiston Respublikasining mavjud konstitutsiyaviy tuzumini, hududiy yaxlitligini zo'rlik bilan o'zgartirishga da'vat etishga, urush, zo'ravonlik va terrorizmni,

shuningdek, diniy ekstremizm, separatizm va fundamentalizm g'oyalarini targ'ib qilishga, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atuvchi axborotni, shuningdek, pornografiyani targ'ib qilishga qaratilgan va tarqatilishi qonun hujjatlari bilan taqiqlangan boshqa axborotning tarqatilishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan choralarni ko'rish.

4.5.11. Abonentlarning murojaatlarini (yozma yoki elektron yoki onlayn) qonunchilikda belgilangan tartib va muddatlarda ko'rib chiqish.

4.5.12. Abonentlar Operatorning CALL-markaziga (axborot-ma'lumot xizmati) qo'ng'iroq qilib bog'lanishida teng huquqliligini ta'minlash. Bunda, Abonentlar Operatorning CALL-markaziga qo'ng'iroq qilib bog'lanishlarida ma'lum bir Abonentlarga boshqa Abonentlarga nisbatan ustuvorlik (bog'lanish vaqti, xizmat ko'rsatish vaqti va h.k.) taqdim etilishiga yo'l qo'ymaslik.

4.5.13. Operator tarmog'idagi shikastlanishlarni, bu haqidagi Abonent murojaati kelib tushgan kundan boshlab, belgilangan muddat ichida (bunday shikastlanishlarni bartaraf etish uchun telekommunikatsiya sohasidagi normativlarda belgilangan muddatlarda) bartaraf etilishini ta'minlash.

4.5.14. Xalqaro trafikning noqonuniy o'tkazilishi hamda GSM, IP yoki SMS shlyuzlardan yashirin foydalanishga qarshi telekommunikatsiya tarmog'ida maxsus apparat-dasturiy vositalarni o'rnatish yo'li bilan va boshqa zaruriy choralarni ko'rish, muntazam ravishda Operator tarmog'ida xalqaro trafikni o'tkazish tartibi buzilishlarining oldini olish, aniqlash va tugatishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish va Abonentning harakatlarini tahlil qilish yoki tegishli tadbirlarni amalga oshirish yo'li bilan Abonent raqamlarini faol aniqlash tamoyillariga asoslangan vositalar va tizimlarni qo'llash.

4.6. Telefon aloqasi xizmatlarini ko'rsatishda Operatorning qo'shimcha majburiyatlari:

4.6.1. Abonent qurilmasi Abonentning aybi bilan buzilmagan hollarda, Abonent tomonidan ta'mirlash byurosiga talabnoma berilgan vaqtdan boshlab, talabnoma yopilgan paytgacha Abonent qurilmasining butun ishlamagan vaqti uchun har oylik to'lov hisoblanadigan barcha telefon aloqasi xizmatlari uchun qayta hisob-kitoblarni amalga oshirish.

4.6.2. Buyurtma bo'yicha xalqaro telefon aloqasidan foydalanganda hamda so'zlashuvlar uchun vaqtbay to'lov tizimi joriy qilinganda, so'zlashuvning minimal haq to'lanadigan davomiyligini Abonent e'tiboriga yetkazish.

4.6.3. Texnik sabablarga ko'ra, Abonent raqamini almashtirish to'g'risida kamida **10 (o'n) kun** oldin Abonentni tegishli tarzda xabardor qilish.

4.6.3.1. Yangi ATS ishga tushirilishi va mahalliy telefon tarmoqlarining rekonstruksiya qilinishi, yangi texnologiya joriy etilishi munosabati bilan, Abonent raqami almashtirilishi to'g'risida Abonentlarga avtomat ravishda qo'ng'iroq qilish yoki yozma xabarnoma orqali Abonentga **20 (yigirma) kun** oldin xabarnoma yuborish.

4.6.4. Mahalliy telefon aloqasi xizmatlarining narxini hisobga olish tizimining o'zgarganligi to'g'risida OAVda va Operator rasmiy veb-saytida kamida **3 (uch) oy oldin** e'lon qilish.

4.6.5. OAVda va Operator rasmiy veb-saytida yangi tariflar kuchga kirishidan kamida **15 (o'n besh) kun** oldin universal telefon aloqasi xizmatlariga tariflarni o'zgartirish to'g'risidagi qarorni nashr qilish.

4.6.6. Abonent qurilmasining uzilishiga olib kelgan buzilishlar bartaraf etilganidan so'ng, telefon aloqasi xizmatlariga haq to'lash qarzdorligi tugatilganda va Abonent aybi bilan Abonent qurilmasi ishlamagan vaqti uchun Abonent to'lovi kiritilganidan keyin telefon aloqasi xizmatlariga haq to'lanmaganligi yoki Abonent qurilmasini ekspluatatsiya qilish qoidalarini buzilganligi uchun o'chirilgan Abonent qurilmasini bepul tarmoqqa ulash.

4.6.7. Operator tarmog'i orqali ko'rsatilayotgan mahalliy telefon aloqasi xizmatlari kommutatsiya qurilmalaridan telekommunikatsiya tarmog'iga kira olish nuqtasidagi Abonent rozetkasigacha yoki u mavjud bo'lmaganda, Abonent qurilmasigacha bo'lgan qismiga qadar xizmat ko'rsatish.

4.7. Mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatishda Operatorning qo'shimcha majburiyatlari:

4.7.1. Xizmat ko'rsatish zonasi doirasida mobil aloqa xizmatlarini sifatli, o'z vaqtida va kechayu-kunduz ko'rsatilishini ta'minlash.

4.7.2. Abonent shartnomasining bekor qilinishi vaqtigacha qarzi va oldindan to'lovning zarur summasi to'liq hajmda to'laganida, Abonentga ushbu xizmat ko'rsatilishini tiklash.

4.7.3. Abonentning yozma-elektron (Shaxsiy kabinet orqali) murojaatiga asosan **1 (bir) yilgacha** Abonent raqamidan foydalanish davri ichida Abonent shaxsiy hisob raqamidagi o'zaro hisob-kitoblarning joriy holati to'g'risidagi axborotni taqdim etish.

4.7.4. SIM-karta yoki Abonent qurilmasi (eSIM) yo'qolganda, Abonentning arizasi bo'yicha (yozma yoki elektron shaklda yoki onlayn) xizmatlarning ko'rsatilishini zudlik bilan to'xtatish.

4.7.5. Operator rasmiy veb-saytida Dilerlar ro'yxatini (ularning to'liq nomlarini, yuridik manzili va xizmat ko'rsatish punktlarini ko'rsatgan holda) yuritish.

4.7.6. Operator rasmiy veb-saytida ushbu xizmat turi bo'yicha rasmiy axborotni (taqdim etiladigan xizmatlar ro'yxatining o'zgarishi to'g'risidagi axborot, tariflar, prays-varaqlar, xizmatlarni taqdim etish tartibi va shartlari) belgilangan muddatlarda oldindan e'lon qilish.

4.7.7. Avval tuzilgan Abonent shartnomalari bo'yicha Operatorning 5 (besh) ta va undan ko'p raqamlariga ega Abonent - jismoniy shaxs bilan Abonent shartnomasini faqat Operatorning ofisida tuzilishini ta'minlash (qishloq joylarida, uzoqda joylashgan, yetib borish qiyin bo'lgan olis aholi punktlarida maxsus jihozlangan transport vositalarida Abonent shartnomasini tuzish hollari bundan mustasno), bunday Abonent — jismoniy shaxs bilan Abonent shartnomasini tuzishda yangi ulanish to'g'risida Abonentning avval tuzilgan Abonent shartnomalari bo'yicha mavjud bo'lgan barcha raqamlariga SMS-xabar orqali xabardor qilishni amalga oshirish.

4.7.8. Diler orqali tuzilgan Abonent shartnomasi asosida Abonentga mobil aloqa xizmatlarini so'zsiz taqdim etish.

4.7.9. O'zini-o'zi obro'sizlantirgan Diler to'g'risidagi ma'lumotlarni va Operatorning Dileri sertifikatidan mahrum qilinganligi haqida axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasidagi vakolatli davlat organiga (markazlashtirilgan onlayn bazaga kiritish uchun) darhol yuborish.

4.7.10. Operator veb-saytida mobil aloqa xizmatlarining turlari va standartlari bo'yicha xizmat ko'rsatish zonasini namoyish etuvchi interaktiv onlayn elektron kartani, shuningdek, aholi punktlarining ro'yxatini yuritish.

4.7.11. Qoidalarga muvofiq Abonentlarga bepul axborotlarni taqdim etish, shu jumladan:

- ko'rsatilayotgan xizmatlarning ro'yxati, shuningdek, ularni ko'rsatish tartibi va shartlari o'zgarganligi to'g'risida;

- xizmat ko'rsatish zonasi o'zgarganligi to'g'risida;

- xizmatlar bo'yicha tariflar o'zgarganligi to'g'risida ma'lumotlarni yangi tariflar joriy qilingunga qadar **10 (o'n) kun** oldin taqdim etish.

4.7.12. Abonentni xabardor qilmasdan yoki uning roziligisiz, imzolarni qalbakilashtirib, soxta hujjatlar bo'yicha yoxud Shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatning asl nusxasini tekshirmasdan Abonent shartnomasini tuzmaslik.

4.7.13. Abonent tomonidan ushbu Abonent shartnomasi shartlari buzilgan hollarda, buzilishlar bartaraf etilgunga qadar Operator tomonidan ushbu xizmatni ko'rsatilishi to'xtatilgan davrda, Abonentda favqulodda tezkor xizmatlarni chaqirish imkoniyatini saqlab qolish (Abonent shartnomasi bekor qilingan hollar bundan mustasno).

4.8. Ma'lumot uzatish xizmatlarini ko'rsatishda Operatorning qo'shimcha majburiyatlari:

4.8.1. Wi-Fi xizmati ko'rsatish vaqtida Abonent/foydalanuvchilarning shaxsini identifikatsiyalash hamda foydalanilgan Internet tarmog'ining veb-resurslari (log-fayllar) hisobini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuritish bo'yicha apparat-texnik chora-tadbirlar ko'rish va ularni **3 (uch) oy ichida** saqlanishini tashkillashtirish.

4.8.2. Abonentlarga Operator veb-saytida va (yoki) OAV orqali, shuningdek, abonentlar va foydalanuvchilar bilan ishlash joylarida quyidagi axborotlarni taqdim etish:

- xizmatlarni ko'rsatish tartibi va shartlari o'zgarganligi, shu jumladan, xizmatlar uchun tariflar o'zgarganligi to'g'risida o'zgartirishlar kuchga kirishidan 10 (o'n) kun oldin;

- ish vaqti, pochta manzili va bank rekvizitlari o'zgarganligi to'g'risida — tegishli o'zgarishlar kiritilgan vaqtdan boshlab.

4.8.3. Abonent shartnomasi bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi, shuningdek, Abonentning arizasiga ko'ra xizmatlar ko'rsatilmaganligi yoki shartnomada belgilangan darajadagi sifatga ega xizmatlar ko'rsatilmaganligi uchun qayta hisob-kitoblarni amalga oshirish.

4.8.4. Abonentning joriy holati, shu jumladan, ma'lumotlar uzatish vaqti, tezligi, olingan va (yoki) uzatilgan axborotning hajmi to'g'risida batafsil axborotni taqdim etish.

4.9. Operatorning asosiy majburiyatlari:

4.9.1. Abonentlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar haqida ishonchli axborotlarni taqdim etish.

4.9.2. Abonentga xizmatlardan foydalanish va ko'rsatilgan xizmatlarga hisob-kitoblar bo'yicha masalalarda maslahatlar tashkil etish.

4.9.3. Xizmat to'lovini va/yoki Abonent to'lovini to'lamaganligi uchun uzib qo'yilgan, u tomonidan ko'rsatilgan xizmat uchun qarzdorlik Abonent tomonidan qoplanganidan va Abonent tomonidan tanlab olingan Tarif/Tarif rejaga muvofiq oldindan to'lov miqdori kiritilganidan keyin, Abonentni Operator tarmog'iga ulashni amalga oshirish.

4.9.4. Abonent shaxsiy ma'lumotlarini himoyalash uchun zarur tashkiliy choralarni qo'llash va Abonent haqidagi ma'lumotlarni maxfiyligini ta'minlash bo'yicha qonunchilikda belgilangan boshqa talablarini bajarish.

4.9.5. Abonentga rejalashtirilgan texnik ishlar o'tkazilishi haqida ish boshlanish sanasidan kamida **24 (yigirma to'rt) soat** oldin Operatorning veb-saytida xabar berish.

4.9.6. Operator tarmog'i uskunalarning doimiy ish qobiliyatini ta'minlash.

4.9.7. Abonent tomonidan FROD hisoblanuvchi harakatlar sodir qilinganligi va majburiyatlar buzilganligi holati haqida tegishli vakolatli organlarga xabar berish va bunday Abonentga xizmat ko'rsatishni zudlik bilan to'xtatish.

4.9.8. Mobil aloqa xizmati bo'yicha - agar Operator ushbu xizmatlarni ko'rsatuvchi boshqa operatorlar bilan tegishli shartnoma tuzgan bo'lsa, Abonentga rouming xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini taqdim etish, agar bunday xizmat Abonent tomonidan o'rnatilsa yoki Abonent tomonidan tanlangan tarif rejasida nazarda tutilgan bo'lsa.

4.9.9. Yirik avariya yuz berganda, Abonentga OAV orqali va Operatorning rasmiy veb-saytida (shu jumladan SMS-xabar yuborish orqali) Telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatilishini qayta boshlash/tiklash muddatlarini aniq ko'rsatgan holda, xabar berish.

4.9.10. Wi-Fi-xizmatlarini ko'rsatishda Abonent/foydalanuvchining shaxsini aniqlash/identifikatsiya qilish,

shuningdek, veb-resurslar (log-fayllar) hisobi yuritilishini qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etish bo'yicha apparat-texnik chora-tadbirlarni amalga oshirish.

4.9.11. Axborot resurslarini himoya qilishni ta'minlash, O'zbekiston Respublikasining mavjud konstitutsiyaviy tuzumini, hududiy yaxlitligini zo'rlik bilan o'zgartirishga da'vat etishga, urush, zo'ravonlik va terrorizmni, shuningdek, diniy ekstremizm, separatizm va fundamentalizm g'oyalarini targ'ib qilishga, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atuvchi, shuningdek, pornografiyani targ'ib qilishga qaratilgan axborotni va tarqatilishi qonun hujjatlari bilan taqiqlangan boshqa axborotning tarqatilishiga yo'l qo'ymaslik va tarmoqda ushbu harakatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

5. 5. ABONENTNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Abonent quyidagi umumiy huquqlarga ega:

5.1.1. Abonent mazkur Ommaviy ofertaning 3.1-bandiga muvofiq, o'zining shaxsiga doir ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash bo'yicha bergan roziligini bekor qilishi mumkin. Bunday holatda Operator Abonentga to'liq yoki qisman xizmat ko'rsatishni to'xtatish huquqiga ega bo'ladi.

5.1.2. Taqdim etiladigan telekommunikatsiya xizmatlari narxi va tariflardan xabardor bo'lish va bu xaqda ma'lumot olish.

5.1.3. Aloqani va Abonentning Operator tarmog'idan foydalana olishni tashkil qilish usullari, ulanish va xizmat ko'rsatish tartibi hamda Telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etish qoidalariga haqidagi ma'lumotni olish.

5.1.4. Kafolatlangan xizmat ko'rsatish darajasi, sifat darajasi, Operator serverida Abonent axborotining himoyalanganligini ta'minlashning kafolatlangan darajasi va boshqa ma'lumotlarni, axborotlarni olish.

5.2. Abonent quyidagi asosiy huquqlarga ega:

5.2.1. Umumiy foydalanish telekommunikatsiya tarmog'idagi xizmatlardan foydalanish.

5.2.2. O'ziga tegishli Abonent qurilmasini ushbu Ommaviy oferta/Abonent shartnomasi va Qoidalarda belgilangan shartlar va tartibda Operator tarmog'iga ulanish.

5.2.3. Operatoridan ushbu Ommaviy oferta/Abonent shartnomasida belgilangan majburiyatlar bajarilishini hamda o'z vaqtida sifatli xizmat ko'rsatilishini talab qilish, Operator tomonidan Ommaviy oferta/Abonent shartnomasi shartlari buzilgan holda, Telekommunikatsiya xizmatlaridan voz kechish va Operator bilan Abonent shartnomasini bekor qilish, Abonent shartnomasi bo'yicha majburiyatlar o'z vaqtida bajarilmaganligi yoki xizmatlar ushbu shartnomada belgilangan muddatda bajarilmaganligi ayon bo'lganda, shuningdek, ko'rsatilgan xizmatlar sifati ushbu shartnoma shartlarida belgilanganidan past darajada bo'lganda, kamchiliklarini bepul bartaraf etish, Operator bilan kelishuv bo'yicha ushbu xizmat ko'rsatilishi mumkin bo'lgan yangi muddatni belgilash yoxud Telekommunikatsiya xizmatining narxini qayta hisoblashni talab qilish.

5.2.4. Ommaviy oferta/Abonent shartnomasida ko'zda tutilgan Telekommunikatsiya xizmatlaridan amaldagi tariflarga, xizmatlarning tavsifi va xizmatlar sifatiga muvofiq, shuningdek, Operator tomonidan ko'rsatiladigan qo'shimcha xizmatlardan foydalanish.

5.2.5. Operator tomonidan Telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatilmaganligi yoki tegishli sifatga ega bo'lgan xizmatlar ko'rsatilmaganligi natijasida o'ziga yetkazilgan zarar o'rning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanishini talab qilish, Operator harakatlaridan norozi bo'lib shikoyat qilish hamda ma'naviy zarar o'rning to'ldirilishini talab qilish.

5.2.6. Qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan imtiyozlar va afzalliklar berilishini talab qilish (bunda, imtiyozlar huquqini

beruvchi hujjatlar asl nusxasi rasman taqdim etilgan kundan boshlab imtiyozlar va afzalliklar amal qiladi), shuningdek, Operator bilan oldindan erishilgan ogʻzaki kelishuv asosida Abonent shartnomasiga tegishli oʻzgartishlar va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida kelishuv bitimini imzolash.

5.2.7. Favqulodda tezkor xizmatlarni chaqirishda, shuningdek, Abonent shartnomasida koʻzda tutilgan hollarda Telekommunikatsiya xizmatlaridan bepul foydalanish, Operatorga arizalar, takliflar va eʼtirozlar bilan murojaat etish.

5.2.8. Interaktiv usullarda, shu jumladan, mobil ilovalarda roʻyxatdan oʻtgan holda Operator bilan oʻzaro munosabat oʻrnatish.

5.2.9. Yengib boʻlmaydigan kuchlar/fors-major holatlarida Operator tomonidan Telekommunikatsiya xizmatlarini koʻrsatish muddatlariga rioya qilmaslikka, bunda Operator bilan kelishib xizmatlarni bajarishning yangi muddatini belgilash va boshqalar.

5.2.10. Foydalanilgan xizmatlar hajmi, shuningdek, Shaxsiy kabinet (Shaxsiy kabinetga ulanish nazarda tutilgan xizmat turlarida qoʻllaniladi) orqali yoki Operatoridan foydalanilgan xizmatlar hajmi, shaxsiy hisobdagi toʻlovlar tarixi, hisoblar va pul mablagʻlarining qoldigʻi haqida batafsil maʼlumotlarni olish.

5.2.11. Operatoridan Abonentga qadar aloqa kanallarining koʻrsatkich va sifatleri yomonlashganida Operatorning texnik qoʻllab-quvvatlash xizmatiga soʻrov bilan murojaat qilgan holda nosozlik holati bartaraf etilishini talab qilish.

5.2.12. Operatorni yozma yoki elektron shaklda (interaktiv usullarda) xabardor qilib, Telekommunikatsiya xizmatlardan foydalanishni toʻxtatish.

5.2.13. Ommaviy oferta/Abonent shartnomasi shartlarining buzilishi va koʻrsatilgan xizmatlar boʻyicha hech qanday qarzi mavjud boʻlmasa, Operator oʻrtasida tuzilgan Abonent shartnomasini bir tomonlama tartibda bekor qilish.

5.2.14. Muntazam ravishda (kamida 7 kunda bir marta) rasmiy WEB-saytida oʻzgarishlar haqidagi maʼlumotlar mavjudligini tekshirish.

5.3. Telefon aloqasi xizmatlari koʻrsatilishida Abonent quyidagi qoʻshimcha huquqlarga ega:

5.3.1. Abonentning aybisiz aloqa boʻlmagan davrda, taʼmirlash yuzasidan uning talabnomasi mavjud boʻlganida, shuningdek, uning arizasisiz qoʻshimcha pullik xizmatlar va boshqalar taqdim qilinganda, ushbu xizmatlar uchun toʻlovlarni qayta hisoblashni yoki ushbu xizmatlardan foydalanganlik uchun pul mablagʻlarining qaytarilishini talab qilish.

5.3.2. Mahalliy telefon aloqasi xizmatlari uchun vaqtbay toʻlov tizimidan foydalangan holda toʻlangan davr uchun hisob taqdim etilganda alohida toʻlov evaziga amalga oshirilgan telefon bogʻlanishlar boʻyicha hisobning batafsil tavsifini talab qilish.

5.3.3. Agar Operator ushbu xizmat turini koʻrsatish jarayonida kamchiliklarga yoʻl qoʻysa, Abonent oʻz xohishiga koʻra:

- telefon aloqasi xizmatlarining kamchiliklarini bepul bartaraf etish;
- telefon aloqasi xizmatlarini qayta taqdim etish;
- xalqaro, shaharlararo va mahalliy telefon aloqasi xizmatlarining narxlarini kamaytirish;
- yetkazilgan zararlarni qoplash bilan shartnomani bekor qilishga haqli.

5.4. Mobil aloqa xizmatlari koʻrsatilishida Abonent quyidagi huquqlarga ega:

5.4.1. Barcha amalga oshirilgan ulanishlarning sanasi va vaqti, ularning davomiyligi va Abonent raqamlarini ko'rsatgan holda, Abonent raqamidan foydalangan **1 (bir) yilgacha** davr uchun Operator tomonidan belgilangan tartib va shartlarga asosan barcha xizmat turlari bo'yicha Operatoridan batafsil hisobni olish.

5.4.2. Ushbu Ommaviy oferta/Abonent shartnomasi va Qoidalar shartlariga rioya qilgan holda, muayyan hududda (aeroport, samolyot, antenna maydoni va h.k.) amal qiladigan alohida farmoyishlar va qoidalarni hamda to'sqinlik qilishi yoki xavfli vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlarda (tibbiyot muassasalari, yoqilg'ini saqlash va qayta yuklash hududi, portlash ishlarini o'tkazish joylarida va h.k.) cheklanishlarni hisobga olgan holda, texnik talablarga mos bo'lgan Abonent qurilmasidan foydalanish.

5.4.3. Amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Operator tarmoqlarida "Abonent raqamini ko'chirib o'tkazish" xizmatidan foydalanish (bunda Axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalari sohasidagi vakolatli davlat organi tomonidan "Abonent raqamini ko'chirib o'tkazish" xizmatidan foydalanish tartibi yoki shunga teng kuchga ega huquqiy hujjat qonuniy kuchga kirganidan so'ng, ushbu xizmatdan foydalanishga yo'l qo'yiladi).

5.4.4. Abonent o'zi foydalanayotgan mobil raqamni donor oldidagi shartnoma bo'yicha majburiyatlar mavjud bo'lmaganda boshqa mobil aloqa operatoriga (retsipient)ga ko'chirish xuquqiga ega bo'ladi.

5.5. Abonentning asosiy majburiatlari:

5.5.1. Operator bilan tuzilgan Ommaviy oferta/Abonent shartnomasi shartlariga to'liq rioya qilish hamda Operator tomonidan taqdim etilayotgan Telekommunikatsiya xizmatlaridan shaxsan foydalanish.

5.5.2. O'ziga tegishli bo'lgan yoxud Operator tomonidan xizmatlar ko'rsatish davrida foydalanish uchun taqdim etilgan Abonent qurilmasi yordamida ko'rsatiladigan Telekommunikatsiya xizmatlari uchun Ommaviy oferta/Abonent shartnomasida belgilangan muddatlarda va to'liq hajmda (hisob-kitob tartibi, Tariflar/Tarif rejalarini va taqdim etiladigan xizmatlar ro'yxati bo'yicha) to'lovlarni amalga oshirish.

5.5.3. Operator tarmog'idan davlat siri bo'lgan ma'lumotlarni yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa maxfiy ma'lumotlarni uzatish uchun foydalanishga yo'l qo'ymaslik.

5.5.4. Operator tarmog'i orqali O'zbekiston Respublikasining mavjud konstitutsiyaviy tuzumini, hududiy yaxlitligini zo'rlik bilan o'zgartirishga da'vat etishga, urush, zo'ravonlik va terrorizmni, shuningdek, diniy ekstremizm, separatizm va fundamentalizm g'oyalarini targ'ib qilishga, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atuvchi, shuningdek, pornografiyani targ'ib qilishga qaratilgan ma'lumotni va tarqatilishi qonun hujjatlari bilan taqiqlangan boshqa ma'lumotlarni tarqatmaslik.

5.5.4.1. Abonent qurilmasidan noqonuniy maqsadlarda foydalanmaslik, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining talablari, Operatorning huquqlari va manfaatlari, shu jumladan, Operatorning xalqaro imijiga/rejtingiga, moliyaviy va boshqa zarar yetkazishga olib keladigan xatti-harakatlarni sodir etmaslik.

5.5.4.2. Operator tomonidan Abonentga taqdim etiladigan xizmatlar litsenziyalangan faoliyat turi bo'lib, Abonent tomonidan ularni taqdim etish tartibi buzilishi, shu jumladan, qayd etilgan mutloq aloqa tarmoqlari, Internet-telefoniya va Abonent qurilmalari xizmatining noto'g'ri ishlashiga olib keladigan boshqa xizmatlarga ulanish uchun shlyuzlarni o'rnatishi va/yoki Operatorga zarar yetkazadigan maxsus aloqa qurilmalarining ish qobiliyatiga zarar yetkazilishi uchun Abonent belgilangan tartibda (ma'muriy yoki jinoiy) javobgarlikka tortiladi, shuningdek, Operatorga yetkazilgan zararni to'liq qoplaydi.

5.5.5. Operator tarmog'i yordamida fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatiga yoki obro'siga putur yetkazadigan, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo'l qo'yadigan ma'lumotni tarqatmaslik.

5.5.6. Operator tarmog'i orqali tarqatilishi taqiqlangan ma'lumotlardan tijorat yoki notijorat maqsadlarda foydalanmaslik.

5.5.7. Operator tarmog'i ish sifatining pasayishiga yoki telekommunikatsiya tarmoqlarining shikastlanishiga olib keladigan harakatlarni bajarmaslik, Operatorni o'zining Abonent qurilmasi, tarmog'i va dasturiy ta'minotidagi barcha nosozliklar yoki o'zgarishlar to'g'risida zudlik bilan xabardor qilish.

5.5.8. O'z xonalarida joylashgan Abonent tarmog'i va Abonent qurilmasini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalariga qat'iy rioya qilish, ma'lumotlar bazalaridan ruxsatsiz foydalanmaslik va Operatorning dasturiy vositalarini o'zgartirmaslik.

5.5.9. O'zining xatti-harakatlari/harakatsizligi oqibatida Operatorga yetkazilgan zararni qonun hujjatlariga muvofiq qoplash.

5.5.10. Tarkibida kompyuter viruslari yoki tarmoq uchun zarar yetkazilishi mumkin bo'lgan ma'lumotni yoki dasturiy ta'minotni e'lon qilmaslik yoki uzatmaslik, kompyuter axborotidan, ya'ni axborot-hisoblash tizimlari, tarmoqlari va ularning tarkibiy qismlaridagi ma'lumotlardan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish holatlariga yo'l qo'ymaslik.

5.5.11. Operator tarmog'ida taqdim etilgan axborot va intellektual mulk ob'ekti uchun mualliflik huquqlarini buzmaslik, televideniye tarmoqlarida boshqa shaxslar tomonidan beriladigan signallarga ulanish holatlariga yo'l qo'ymaslik.

5.5.12. Operator vakillariga tekshiruv, ta'mirlash ishlarini amalga oshirish va texnik xizmat ko'rsatish uchun telekommunikatsiya inshootlari va qurilmalari joylashgan hududlarga kirishni ta'minlash.

5.5.13. Ommaviy oferta/Abonent shartnomasi bo'yicha shaxsan yoki qonuniy vakili orqali (notarial tasdiqlangan ishonchnoma asosida) o'z huquqlarini amalga oshirish, shuningdek, xizmatlardan shaxsiy maqsadlarda foydalanish. Bunda Abonentning Abonent qurilmalari bilan amalga oshirilgan aloqa xizmatlarini olish bo'yicha harakatlari Abonentning nomidan va uning manfaatlarini ko'zlab, amalga oshirilgan bo'lib hisoblanadi.

5.5.14. Telekommunikatsiya xizmatlaridan foydalanish amalda boshlanguniga qadar mavjud xizmatlar, tarif rejalari, xizmat tariflari va boshqa qo'shimcha ma'lumotlar ro'yxati bilan tanishish.

5.5.15. O'zbekiston Respublikasining standartlariga muvofiq sertifikatlangan Abonent qurilmalaridan foydalanish, bunda Abonent qurilmasidan foydalanishdagi cheklovlarini hisobga olgan holda qurilma ishlab chiqaruvchisining ko'rsatmalariga muvofiq foydalanish. Operator Abonentga belgilangan cheklovlar va talablar to'g'risida xabar berishga majbur emas.

5.5.16. Operator tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlardan noqonuniy maqsadlarda foydalanmaslik, shu jumladan, abonent raqamidan xalqaro trafikni noqonuniy o'tkazish uchun (GSM va IP shlyuzlardan foydalanib), Operator va/yoki uning bilan bog'liq uchinchi shaxslarga zarar yetkazmaydigan xatti-harakatlarni amalga oshirmaslik, Abonent qurilmalaridan dasturiy ta'minotni tarqatishga yo'l qo'ymaslik, IP-manzillar va Abonent raqamlarini qalbakilashtirmaslik, asbob-uskunalar, dasturiy xizmatlar, Operator tarmog'ida ruxsatsiz harakatlar, resurslardan va xizmatlardan noqonuniy foydalanmaslik.

5.5.17. Abonent Operatorga qonuniy tasdiqlangan shaxsiy ma'lumotlarni, shuningdek, xatlarni yetkazib berish uchun aniq pochta manzili, bank rekvizitlari, pochta manzili va vaqtinchalik yashash joyi/joylashgan manzili, Ommaviy oferta/Abonent shartnomasi shartlarini bajarish uchun foydalaniladigan boshqa ma'lumotlarni va Operatorga zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etishi shart. Ko'rsatilgan ma'lumotlar o'zgargan taqdirda, ushbu o'zgartirishlar kuchga kirgan kundan boshlab, **15 (o'n besh) kalendar kun** ichida Operatorga yangi ma'lumotlar yozma shaklda taqdim etilishi shart (Abonent tomonidan mazkur kichik bandda ko'rsatilgan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, Operator tomonidan majburiyatlari lozim darajada bejarilgan deb hisoblanadi). Operator tomonidan Abonentning yangi pochta manzili ma'lumotlaridan foydalanib, xizmat ko'rsatilishi bunday ma'lumotlar taqdim etilgan keyingi oyning birinchi ish kunidan boshlab, amalga oshiriladi. Bunda:

Abonent - jismoniy shaxs uchun — familiyasi, ismi, otasining ismi, doimiy yashash joyi bo'yicha yoki vaqtincha turar joyi bo'yicha ro'yxatga olinganligi va pasport ma'lumotlari haqiqiy bo'lgan Shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko'rsatish yo'li bilan;

Abonent - yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar yoki qonun hujjatlariga ko'ra yuridik shaxsni tashkil etmagan fuqarolik-huquqiy munosabatlarning boshqa ishtirokchilari, nodavlat-notijorat tashkilotlar, ommaviy-huquqiy tashkilot va boshqalar — nomi (firma nomi), ro'yxatga olingan (yuridik) manzili o'zgarganligi, shuningdek, tugatilganligi to'g'risida xabar qilishi lozim.

5.5.18. Axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha talablarga qat'iy amal qilish, Operator bilan axborot xavfsizligi masalalarini hal qilishda hamkorlik qilish.

5.5.19. Shaxsiy hisob raqamini ijobiy balansda ushlab turish, Operator hisobi bo'yicha o'z vaqtida zarur Avanc to'lovlari/Abonent to'lovini amalga oshirish.

5.5.20. Tarmoq ma'lumot (rekvizit)lari tasodifan/Abonentning extiyotsizligi yoxud beg'araz harakati oqibatida oshkor qilinganida, bu haqda Operatorga zudlik bilan mumkin bo'lgan usullar orqali xabar berish va shu vaqtning o'zida, Operator bilan kelishilgan holda, o'z Autentifikatsiya ma'lumotlarini (paroli)ni o'zgartirish.

5.5.21. Abonent qurilmasi orqali Operatorning aloqa kanallari, dasturiy ta'minoti va uskuna/vositalariga zarar yetkazish ehtimolini, shuningdek, o'zining yoki uchinchi shaxslarning Autentifikatsiya ma'lumotlaridan qasddan foydalanish holatlarining oldini olish choralari ko'rish.

5.5.22. Operatoridan oldindan yozma yoki elektron shakldagi roziligini olmay turib, Abonent qurilmasi, uskuna/vositalarining va/yoki boshqa qurilmalarining to'g'ridan-to'g'ri buzilishiga/nosoz holga kelishiga olib keladigan – lotereyalar, ovoz berish, tanlov, viktorina, reklama, so'rovnomalar, ommaviy tarqatiladigan xabarlar va boshqa tadbirlarda ishtirok etish uchun foydalanmaslik.

5.5.23. Operatorga quyidagi hodisalarda zudlik bilan, Abonent uchun mumkin bo'lgan va qulay usullarda (yozma yoki elektron shaklda ariza berish yoxud CALL-markazga qo'ng'iroq qilish orqali va boshqalar) xabar qilish va choralari ko'rishni o'z zimmasiga oladi va javobgar bo'ladi:

- SIM (eSIM) kartasi, Abonent qurilmasi va boshqalarning yo'qolishi yoki o'g'irlanishi (bunday holatda SIM/RUIM karta orqali xizmat ko'rsatilishining Operator tomonidan bekor qilinishiga olib keladi);

- SIM (eSIM) kartada mavjud bo'lgan va Operatorga tegishli bo'lgan shifrlangan holdagi ma'lumotlar/tijorat sirlarini o'zi va uchinchi shaxslar tomonidan egallanishiga/olinishiga/xabardor bo'lishiga/erkin foydalanishiga yo'l qo'ymaslik, shu jumladan, o'zgartirishga, egallashga, nusxalashga, ko'paytirishga, tarqatishga, boshqa ma'lumot tashuvchi vositalar/qurilmalarga o'tkazmaslikka va boshqa noqonuniy xatti-harakatlarni amalga oshirilishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha zarur choralarni ko'rish;

- o'zi yoki uchinchi shaxslar tomonidan Operator tomonidan topshirilgan

SIM-kartaning dublikatini tayyorlamaslikni, shuningdek, uchinchi shaxslarga taqdim etmaslikni va uchinchi shaxslar tomonidan bunday harakatlarning amalga oshirilishiga yo'l qo'ymaslikni ta'minlash;

- FRODLarni sodir etmaslik.

Abonent tomonidan ushbu shartlarga rioya qilinmagan hollarda, yo'qotilgan SIM-karta yoki Abonent qurilmasidan (eSIM) foydalangan holda olingan Operator tomonidan ko'rsatilgan mobil aloqa xizmatlariga to'lov bo'yicha, Operator Abonentning ular yo'qolganligi va xizmatlar ko'rsatishni to'xtatish istagi to'g'risidagi arizasi/murojaatini olgan vaqtigacha majburiyatga ega bo'ladi.

Abonent ushbu kichik bandda ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmasa, Abonent aybi bilan Operatorga yetkazilgan barcha bevosita va bilvosita zararlarni qoplashga majburdir.

5.5.24. Har oyning 10 (o'ninchi) sanasiga qadar elektron hisobvarak-faktura Operatorning sayti orkali junatilishi va unda kursatilgan xarajat mablag'lari mikdori Operator xisobiga utkazilishini (Abonent - jismoniy shaxslarlardan tashqari) ta'minlash. Abonent hisobvarak - fakturalarni qabul qilishdan, shu jumladan, ularni Operator tomonidan taqdim etiladigan manzilga yetkazib berishdan yoki boshqa sabablarga ko'ra, hisobga olinmagan hisobvarak-fakturalar bo'yicha Operatorga o'z vaqtida to'lovlar amalga oshirilishidan ozod qilinmaydi.

5.5.25. Abonent qonun hujjatlarida va Qoidalarda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

5.6. Telefon aloqasi xizmatlaridan foydalanishda Abonentning qo'shimcha majburiyatlari:

5.6.1. Operator bilan tuzilgan Abonent shartnomasiga muvofiq telefonlashtirilgan turar-joydan ko'chish, sotish, almashtirish, ijaraga berish, ijaraga (ikkilamchi ijaraga) olish, familiya, turar-joy manzili, rekvizitlari, korxona nomining o'zgarishi, telefon aloqasi xizmatlari uchun to'lovlarni amalga oshirish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha imtiyozlarni olish yoki yo'qotgan hollarda 1 (bir) oy muddat ichida Operator bilan Abonent shartnomasini qayta rasmiylashtirish yoki bekor qilish.

5.6.2. Abonent liniyasini va qurilmasini o'z uyida/o'ziga tegishli joyda yaxshi holatda saqlash.

5.6.3. Yakka tartibda foydalanadigan telefonga ega bo'lgan Abonent, shuningdek, tashkilotlar (shu jumladan, mehmonxonalar, yotoqxonalar, sanatoriylar, dam olish uylari, chet el vakolatxonalari va xalqaro tashkilotlar)dagi telefon egalari ularning telefonlaridan amalga oshirilgan mahalliy va xalqaro telefon bog'lanishlarga haq to'lash uchun javobgar bo'ladi.

5.7. Ma'lumot uzatish, shu jumladan, Internet xizmatlaridan foydalanishda Abonent telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish uchun GSM, IP yoki SMS-shlyuzlar yoki shunga o'xshash apparat-dasturiy vositalardan foydalanmoqchi bo'lganda, bu haqda Operatorni ogohlantirishga, shuningdek, ma'lumotlar uzatish tarmog'idan GSM va IP-shlyuzlar orqali yoxud boshqa usulda xalqaro trafikni noqonuniy o'tkazish maqsadida foydalanmaslikka majbur.

5.7.1. Abonent tomonidan Operator taqdim etayotgan xizmatlarni subprovayderlik yoki "Internet-kafe"ni tashkil etish orqali qayta sotish/tijorat maqsadlarida foydalanish rejalashtirilganida, Operatorga telekommunikatsiyalar sohasidagi litsenziyalash faoliyatini amalga oshiruvchi vakolatli organi tomonidan berilgan tegishli litsenziyani oldindan taqdim etishi shart. Operator tarmog'idan foydalanib/ulanib, litsenziya talab etiladigan telekommunikatsiyalar sohasida xizmatlar ko'rsatayotgan Abonent qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

5.8. Mobil aloqa xizmatlaridan foydalanishda Abonentning qo'shimcha majburiyatlari:

5.8.1. Abonent shartnomasini tuzayotganda Operator bilan avval tuzilgan shartnomalar bo'yicha aktiv raqamlarning mavjudligi to'g'risida xabar qilish.

5.8.2. Xizmatlar yoki xizmatlarning to'plamlari uchun Operator tomonidan belgilangan shartlarga muvofiq maxsus tariflar (tarif rejalari)dan maqsadli foydalanishni ta'minlash.

5.8.3. Olingan Abonent raqamidan GSM, IP yoki SMS shlyuzlarda yoki shunga o'xshash uskunalardan foydalanish yoki telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish yoki ommaviy SMS-xabarlar uchun foydalanish istagi bo'lganda, buni oldindan Operator bilan kelishish.

5.8.4. Foydalaniladigan Abonent qurilmasining asosiy turlari (uyali telefon, USB-modem, elektr energiyasi/suv/gaz hisoblagichlari, onlayn to'lov terminallari, GSM,

IP yoki SMS shlyuzlar yoki uskunaning boshqa turlari)ni Operatorga ko'rsatish/modelini, texnik parametrlarini aniq yoritish.

6. TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI UCHUN HISOB-KITOBLARNI VA TO'LOVLARNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

6.1. Operator tomonidan ko'rsatiladigan Telekommunikatsiya xizmatlari uchun to'lov naqd pulda va naqd bo'lmagan to'lovlar orqali amalga oshiriladi. Xizmatlar uchun to'lov quyidagicha amalga oshiriladi:

- xizmatlar ko'rsatilishidan oldin to'lovni amalga oshirish (Prepaid) tizimi;

To'lov tizimi telekommunikatsiya xizmatining turi va tarif rejasining shartlari asosida belgilanadi.

6.1.1. Abonent o'z xohishiga ko'ra, **12 (o'n ikki) oydan** ko'p bo'lmagan muddatda xizmatlar uchun Abonent to'lovlarini oldindan, bir yo'la, to'lov kiritish yo'li bilan to'lab qo'yishi mumkin va bunda, tariflar o'zgargan holda ham (tarif narxining oshirilishi yoki tushirilishi) qiymat qayta hisob-kitob qilinmaydi. Quyidagi tartibda oldindan to'lovni amalga oshirishga yo'l qo'yiladi:

- Abonent Operator ofisi/Dileriga shaxsan murojaat qilgan holda, tanlangan Xizmat turi va Tarif rejasi bo'yicha ushbu davrga oldindan to'lovni bir yo'la amalga oshirishi lozim;

- pul o'tkazish yo'li bilan to'lovlarni amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan Abonentlar, ushbu davrga oldindan to'lovni amalga oshirish haqidagi to'lov hujjatida Abonent shartnomasining raqami, shaxsiy hisob raqami (jismoniy shaxslar uchun – Abonent raqamini yoki ID – raqamini yoxud Abonent shaxsiy raqamini ko'rsatish) va oldindan to'lov amalga oshirilayotgan muddatni aniq ko'rsatishlari shart.

6.2. Operator tomonidan ko'rsatiladigan Telekommunikatsiya xizmatlari uchun hisob-kitob va to'lovlar xizmatlar ko'rsatish vaqtida amalda bo'lgan tariflar bo'yicha amalga oshiriladi. Tariflarga kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risida ma'lumotlar Operator tomonidan OAVda, Operatorning rasmiy veb-saytida yoki SMS orqali kamida **15 (o'n besh) kun** oldindan e'lon qilinadi. Ushbu muddatdan so'ng, Abonent to'lovi o'zgartirilgan tariflarga muvofiq hisoblanadi.

6.3. Tariflar/Tarif rejalar xizmatlarning barcha turlari bo'yicha Operator tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Tariflar/Tarif rejalar bo'yicha tasdiqlangan narxlar ro'yxati Operatorning rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

6.4. Tariflar qonunchilikda belgilangan barcha soliqlarni o'z ichiga oladi.

6.5. Yangi Abonentni telekommunikatsiya xizmatlariga ulash uchun Dastlabki avans to'lovini **100 (bir yuz) foiz** oldindan to'lash sharti bilan tegishli Tarif/Tarif rejasida belgilangan miqdorda xizmatlar taqdim etiladi.

6.6. Abonentlar - jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar yoki qonun hujjatlariga ko'ra, yuridik shaxsni tashkil etmagan fuqarolik-huquqiy munosabatlarning boshqa ishtirokchilari, nodavlat-notijorat tashkilotlar, ommaviy- huquqiy tashkilot va boshqalar ko'rsatilgan telekommunikatsiya xizmatlari uchun har oyda amaldagi tarif/tarif rejalariga muvofiq avans to'lovini **100 (bir yuz) foiz** oldindan to'lash sharti bilan, amalga oshiradilar.

6.6.1. Abonentlar - yuridik shaxslar xizmatlar ko'rsatilganidan keyingi hisobot davri uchun, Operator tomonidan taqdim etilgan hisobvara-q-fakturalar asosida to'lovni amalga oshiradilar. To'lov Abonentlarga hisobvara-q-faktura taqdim etilgan sanadan boshlab, **3 (uch) bank kuni ichida** amalga oshirilishi kerak.

6.6.2. Jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar bo'lgan Abonentlar Mobil elektron to'lov xizmatlari/boshqa qo'shimcha xizmatlardan foydalanishi uchun Abonentning Shaxsiy hisob raqamida yetarli miqdorda mablag'lar (tarif rejasiga muvofiq abonent to'lovi yechilgandan keyin balansdagi mablag'lar qoldig'i) mavjud bo'lishi lozim.

6.7. Taqdim etilgan xizmatlar uchun to'lov Abonent tomonidan istalgan qulay usullar orqali - pul mablag'larini

Operatorning hisob raqamiga naqd pulda (to'lov kassalari orqali) yoki naqdsiz pul o'tkazish yo'li bilan pul mablag'larini o'tkazish, shu jumladan, To'lov agentlari/To'lov tizimlari orqali o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

6.8. To'lovlar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida amalga oshiriladi.

6.9. Xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirishda quyidagilar ko'rsatilishi shart:

- yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar yoki qonun hujjatlariga ko'ra, yuridik shaxsni tashkil etmagan fuqarolik-huquqiy munosabatlarning boshqa ishtirokchilari, nodavlat-notijorat tashkilotlar, ommaviy-huquqiy tashkilot va boshqalar uchun – bank hujjatlarida (to'lov topshiriqnomasida) to'lovni amalga oshirish maqsadi, Operator taqdim etgan hisobning raqami va Abonent shartnomasining raqami;
- jismoniy shaxslar uchun – Abonent raqami yoki ID-raqami yoxud Abonent shaxsiy raqami.

6.10. Abonent tomonidan foydalaniladigan xizmatlar uchun har qanday shaklda, shu jumladan, To'lov agentlari orqali to'lovlar amalga oshirilganda, Operator hisob raqamiga tushgan pul mablag'lari Abonentning shaxsiy hisob raqamiga o'tkaziladi (Abonent hisob raqamida bo'ladi). Bunda, Abonent tomonidan To'lov agentlari yoki banklar orqali to'lovlar amalga oshirilganda va ushbu mablag'larni o'tkazish bilan bog'liq nizolar yuzaga kelganda, Operator mazkur nizolar tarafi yoki nizolar bo'yicha javobgar bo'lmaydi.

6.11. Xizmatlar taqdim etilayotganda Abonent tomonidan oldindan to'lov sifatida kiritilgan Abonent to'lovi/Avans to'lovi ko'rinishidagi pul mablag'lari uning Shaxsiy hisob raqamidan/balansidan Tariflar/Tarif rejalari va belgilangan tariflash qoidalariga muvofiq yechib olinadi.

6.12. Xizmatlar Abonentga oldindan kiritilgan Abonent to'lovi/Bo'nak avans to'lovi ijobiy qoldig'idan oshmaydigan miqdorda taqdim etiladi. Abonentning avans to'lovi qoldig'i bitta ulanish uchun zarur bo'lgan miqdordan kam bo'lgan taqdirda, xizmat taqdim etilmaydi (jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar yoki qonun hujjatlariga ko'ra, yuridik shaxsni tashkil etmagan fuqarolik-huquqiy munosabatlarning boshqa ishtirokchilari, nodavlat-notijorat tashkilotlar, ommaviy-huquqiy tashkilot va boshqalar bo'lgan Abonentlar uchun).

6.12.1. Abonentlar - yuridik shaxslar uchun xizmatlar hisobot davri uchun hisob-faktura asosida to'langan va muddati o'tgan qarzlar bo'lmagan taqdirda taqdim etiladi.

6.13. Abonentning Shaxsiy hisob raqami/balansidan iste'mol qilinayotgan xizmatlar haqini yetarli miqdorida darhol yechib olish mumkin bo'lmagan hollarda, iste'mol qilingan xizmatlar uchun hisob-kitoblar kechiktirilgan rejimda yig'iladi va yig'ilgan summalar qayta hisoblanganidan so'ng, Abonentning Shaxsiy hisob raqami/balansi salbiy holatda (nol qiymatda) bo'ladi. Bunda Tomonlar Abonentning Operator oldidagi bunday qarzdorligini shubha ostiga qo'ymaydilar va Abonent tomonidan ushbu qarzdorlik so'zsiz tan olinadi. Operator, o'z navbatida, xizmat ko'rsatishni vaqtincha to'xtatib turadi va shu vaqtning o'zida Abonentni har qanday qulay usullar orqali Operator oldidagi vujudga kelgan qarzdorligi haqida xabardor qiladi va ushbu qarzdorlikni to'lashni talab qiladi.

6.14. Abonent shartnomasi belgilangan tartibda bekor qilingan holda, Abonentning shaxsiy hisob raqamida/balansida foydalanilmay qolgan mablag'lar ushbu Ommaviy ofertaning 12.5-bandiga muvofiq Operator tomonidan Abonentga qaytarib beriladi.

6.14.1. Operator abonentdan (jismoniy shaxsdan) qaytarilishi lozim bo'lgan summadan ushbu shartnomani bajarish bilan bog'liq o'z xarajatlarining 3,7 foizini (uch butun yetti o'ndan bir foizini) ushlab qolishga haqlidir. Mazkur ushlab qolinadigan summa bank xarajatlari va to'lov agentlari xizmatlari uchun sarflangan xarajatlarni o'z ichiga oladi. Ushlab qolinadigan summaning miqdori Operator tomonidan amalga oshirilgan bank xarajatlari va to'lov agentlari xizmatlari uchun sarflangan xarajatlar summasi o'zgarishiga qarab, o'zgartirilishi mumkin.

6.15. Abonent-yuridik shaxsning kafolat xatidagi majburiyati asosida uning Shaxsiy (elektron) hisob raqami balansi salbiy (nol) bo'lganida, **1 (bir) kalendar oydan** oshmagan muddatga xizmatlardan foydalanish imkoniyati taqdim etilishi mumkin. Bunda Abonent, Operator tomonidan amalga oshirilgan barcha hisoblarni tasdiqlaydi, biroq

Abonent shartnomasiga asosan xizmatlar uchun to'lanmagan – Operator tomonidan taqdim etilgan barcha hisoblarni **3 (uch) bank kuni** mobaynida so'zsiz to'liq to'lash majburiyatini oladi. To'lov hisobi pochta orqali, jumladan, elektron pochta orqali jo'natilishi, shaxsan yetkazilishi yoki kurer orqali yetkazilishi ta'minlanadi.

6.15.1. Abonent tomonidan unga Operator tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun o'z vaqtida Abonent to'lovi/Bo'nak avans to'lovi bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Tomonlar Abonentning o'z hisoblarini to'lash majburiyatlari bo'yicha Operatorga javob berishga majbur bo'lgan uchinchi shaxs (kafil) bilan kafillik shartnomasini tuzishga haqlidir. Operator, Abonent va kafil o'rtasidagi barcha munosabatlar kafillik shartnomasi va ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalari bilan tartibga solinadi.

6.16. Agar hisobot oyi tugaganidan keyin 10 (o'n) kalendar kun ichida Abonent xizmatlar hajmi va sifati yuzasidan tegishli yozma yoki elektron shaklda asoslangan da'vo/e'tiroz taqdim etmagan bo'lsa, xizmatlar har bir hisobot oyi davomida Operator tomonidan tegishli tarzda ko'rsatilgan deb hisoblanadi va ushbu hisobot oyining oxirgi kunida Abonent tomonidan qabul qilingan hisoblanadi.

6.17. Abonentning Operator tomonidan yuritiladigan Shaxsiy hisob raqami Tomonlarning o'zaro hisob-kitoblarini amalga oshirish vositasi hisoblanadi. Abonent Shaxsiy hisob raqamining daxlsizligi Operator tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq ta'minlanadi.

6.18. Operator va Abonent o'rtasida to'lovlarni undirish bo'yicha kelishmovchiliklar yuzaga kelgan holda, ushbu kelishmovchiliklar sud tartibida hal etiladi.

7. 7. XIZMAT SIFATI BO'YICHA KAFOLATLAR

7.1. Operator xizmat ko'rsatish zonasida xizmatlar sifatini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasida amaldagi texnik normalari, shuningdek, mavjud Operator litsenziyalariga muvofiq amal qiladi.

7.2. Abonentga ko'rsatilgan xizmatlar sifati yomonlashishi yoki ularning to'xtashi tabiiy sharoitlar oqibatida, binolar yaqinida yoki ichida, tunnellarda, yerto'lada va boshqa yer osti inshootlarida radio to'lqinlarini tarqatish va tarqatishning tabiiy shartlaridan, relef va qurilishning mahalliy xususiyatlaridan, texnikaviy ko'rsatkichlari va holatidan kelib chiqqan holda, shuningdek, Operator ularning ta'sirini oldindan bashorat qila olmaydigan boshqa sabablarga ko'ra hamda meteorologik sharoitlar natijasida sodir bo'lganda, Operator javobgar bo'lmaydi.

7.3. Operator ko'rsatilayotgan xizmatlaridagi kamchiliklar hamda mazkur bobda ko'rsatilgan sabablarga muvofiq kelib chiqadigan boshqa oqibatlar uchun javobgar bo'lmaydi. Abonent tomonidan belgilangan talablarga javob bermaydigan Abonent qurilmasi yoki Abonent uskunasi, ishlab chiqaruvchi yoki Operator bilan kelishmay, o'zgartirilishi yoki o'zgartirilishi natijasida foydalanishga yo'l qo'yilgan holatlar uchun Operator javobgar emas.

8. 8. TOMONLAR JAVOBGARLIGI

8.1. Operator Abonent oldida quyidagilarga javobgardir:

8.1.1. Belgilangan majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik, xizmatlar ko'rsatish muddatlarini va kamchiliklarni bartaraf etish muddatlarini buzganlik, xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlarning ishonchliligi uchun ushbu xizmatlarning ijrochisi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida yoki ushbu Ommaviy oferta/Abonent shartnomasi bilan nazarda tutilgan tartibda.

8.1.2. Abonentning shaxsiy ma'lumotlari to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanish tartibi buzilganligi uchun.

8.2. Abonent Operator oldida quyidagilar uchun javobgardir:

8.2.1. Abonentni individuallashtirish haqidagi ma'lumotlar, shuningdek, Abonentning hisobga olish ma'lumotlarini ishlatib, uchinchi shaxslarning har qanday harakati va/yoki harakasizligi uchun uning autentifikatsiya ma'lumotlari

va boshqa ma'lumotlarni oshkor qilish, yo'qotish, o'g'irlanishiga olib kelgan harakat va/yoki harakasizlik uchun. Operator Abonentning va/yoki uning hisob ma'lumotlarini ishlatib, uchinchi shaxslarning yuqorida ko'rsatilgan harakatlari uchun javobgar emas.

8.2.2. Xizmatni ko'rsatishni davom ettirishda mazkur Ommaviy oferta/Abonent shartnomasi shartlari, Tarif/Tarif rejaları va boshqa joriy o'zgartirishlar kiritilganligi haqida xabardor qilinganidan va ushbu o'zgarishlar kuchga kirish sanasidan so'ng, xizmatlardan foydalanish, shuningdek, Operator veb-saytida xizmatlarni taqdim etishdagi o'zgarishlarni muntazam ravishda tekshirish, ushbu o'zgarishlarga so'zsiz qo'shilish va qabul qilish bo'lib hisoblanadi.

8.2.3. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lgan noqonuniy xatti- harakatlarni sodir etish, shu jumladan:

- O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan, qonun bilan qo'riqlanadigan ob'ektlarga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaradigan ijtimoiy xavfli qilmish uchun;

- ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik uchun.

8.2.4. Unga berilgan tarmoq ma'lumotlari/rekvizitlarining maxfiyligini saqlab qolish va mualliflik huquqi va ular olgan yoki olgan ma'lumotlarga nisbatan qo'llaniladigan boshqa qonunlarga rioya qilinishi uchun.

8.3. Mazkur Ommaviy ofertaning 5.5 – 5.8-bandlarida belgilangan shartlarni buzganlik uchun Abonent Operatorga yetkazilgan zararni to'liq qoplash shaklida javobgar bo'ladi.

8.4. Mazkur Ommaviy Oferta/Abonent shartnomasida ko'zda tutilmagan boshqa holatlarda Tomonlarning javobgarligi, tanlangan xizmatlarning tegishli qoidalar va shartlari bilan hamda O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

9. JAVOBGARLIKNING CHEKLANISHI

9.1. Operator quyidagilarga javobgar hisoblanmaydi:

9.1.1. Operator tomonidan ushbu Ommaviy ofertada nazarda tutilgan tartibda, Operatorga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra, tariflarning o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lmasligi yoki xabardor bo'lmasligi, Operator aybi bilan vujudga kelmagan xizmatlardan foydalanish yoki undan foydalanish mumkin emasligi natijasida Abonent tomonidan ko'rilgan bevosita yoki bilvosita zarar yetkazilganligi uchun.

9.1.2. Operatorning uskunolari va dasturiy ta'minoti bilan bog'liq bo'lmagan ma'lumotlar uzatish tarmoqlariga zarar yetkazilgan taqdirda, mazkur Ommaviy oferta, tanlangan xizmatlarning shartlari va qoidalariga rioya etmaganligi yoki majburiyatlarni bajarmaganligi uchun.

9.1.3. Quyidagi sabablar bilan xizmatlarning sifati va ishonchliligi parametrlari o'rtasidagi farq uchun, shuningdek, Operator va Abonent o'rtasida Abonent trafigi haqida ma'lumot olinishidagi nomuvofiqlik:

- Abonent tomonidan Operator bilan kelishuvsiz aloqa tarmog'ining konfiguratsiyasiga kiritilgan o'zgarishlar;

- dasturiy ta'minot ta'minotini o'rnatish, shu jumladan, taklif/to'lov kartasida belgilangan talablarga javob bermaydigan trafikni hisoblash;

- Abonentga noto'g'ri yo'l-yo'riqlarni, shu jumladan, trafik hisobi dasturlarini o'rnatish.

9.1.4. Xizmatlar sifati va ishonchliligi, parametrlari, shuningdek, Abonentning Operator o'rtasidagi trafikni

tarifikatsiyalash xaqidagi axborotlarning mos kelmasligiga, agar quyidagi sabablarga ko'ra sodir bo'lsa:

- Abonent tomonidan Operator bilan oldindan kelishilmasdan Operator tarmog'iga ulanish konfiguratsiyasining o'zgartirilishi;

- mazkur Ommaviy oferta/Abonent shartnomasi talablariga mos bo'lmagan dasturiy ta'minotni, shu jumladan, trafikni hisoblash dasturi o'rnatilishi;

- Abonent tomonidan dasturiy ta'minotni, shu jumladan trafikni hisoblash dasturi noto'g'ri sozlanishi.

9.1.5. Abonent tomonidan o'z autentifikatsiya ma'lumotlari oshkor qilinishi, Abonent qurilmasidan foydalanish qoidalarini (shu jumladan, ishlab chiqaruvchining ekspluatatsiya qilish bo'yicha yo'riqnomasi talablari) buzilishi, shuningdek, uchinchi shaxslarning qonunga xilof harakatlari, xususan, ruxsatsiz pochta almashinuvi, virusli hujumlar va boshqalar oqibatida yuzaga kelgan har qanday zarar uchun.

9.1.6. Qurilmani almashtirish, dasturiy ta'minot yoki boshqa ishlarni bajarish zarurati yoxud tarmoqning ishlashi va rivojlanishini ta'minlash bilan bog'liq xizmatlarni taqdim etishidagi to'liq yoki qisman uzilishlar uchun, bunday ishlarni amalga oshirish haqida Abonentga majburiy ravishda xabarnoma berilganidan so'ng.

9.1.7. Operatorga tegishli bo'lmagan/taalluqli bo'lmagan Internet tarmog'ining alohida segmentlarining mavjudligi va ishlashi uchun.

9.1.8. Abonent tomonidan tarmoq orqali uzatiladigan axborotning mazmuni, shuningdek, Operator xizmatlaridan foydalanish yoki undan foydalanish mumkin emasligi natijasida Abonent tomonidan bevosita yoki bilvosita ko'rilgan zarar uchun.

9.1.9. Abonent qurilmasining muayyan tizimi yoki dasturiy ta'minoti ishlamasdan qolgani yoxud lozim darajada ishlamagani uchun.

9.1.10. Abonentga texnik sabablar yoki yengib bo'lmaydigan kuchlar/fors-major holatlari sababli uzoq muddat davomida xizmat ko'rsatilmagan hollarda, shu jumladan:

- Operator tomonidan boshqarilmaydigan yoki egalik qilinmaydigan aloqa kanallarining ishlamasligi (degradatsiyasi) va qurilmalari/uskunalarining buzilishi davri uchun

- Abonent yoki Abonentning roziligi bilan xizmatdan foydalanadigan uchinchi shaxs tomonidan bevosita yoki bilvosita harakatlari sababli kelib chiqqan, xizmatlar taqdim etilmaydigan davri uchun. Ushbu holat Operatorning texnik xizmatlari bilan mos kelmaydigan apparat yoki dasturiy ta'minotni o'zgartirish, tarmoq rekvizitlarini mustaqil ravishda qayta tiklash, modifikatsiyalash ma'nosini anglatadi

- **30 (o'ttiz) daqiqadan kam** davom etgan davr uchun.

9.1.11. Abonentning oldindan berilgan buyurtmasi asosida Operator tarmog'i orqali Kontent-provayder tomonidan yuboriladigan kontentning mazmuni va sifati, taqdim etilmasligi yoki o'z vaqtida taqdim etilmasligi uchun.

9.1.12. Operatorga bog'liq bo'lmagan yoki Operatorning aybi bo'lmagan holatlarda Abonent tomonidan boy berilgan foyda ko'rinishidagi zararlar uchun.

9.1.13. Operator tarmog'i orqali Uchinchi shaxslar (shu jumladan, to'lov xizmatlari bozori ishtirokchisi) tomonidan xizmatlar taqdim etilishi, ularning sifati hamda hajmi uchun.

9.1.14. Abonent tomonidan har qanday axborotning tarqatilishi yoki Abonent tomonidan Uchinchi shaxs (shu jumladan, to'lov xizmatlari bozori ishtirokchisi)ning xizmatlari orqali yetkazilgan har qanday zarar uchun.

9.2. Operator (ma'lumotlar uzatish va Internet, shuningdek Wi-Fi xizmatlarini ko'rsatishda) uning tasarrufida bo'lmagan (uning bevosita boshqaruvi va nazorati ostida) resurslar, serverlar va ma'lumotlar uzatish tarmog'ining segmentlari mazmuni, mavjudligi va ishlashi uchun javobgar bo'lmaydi.

10. 10. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUHLAR/FORS-MAJOR HOLATLARI

10.1. Ushbu Ommaviy oferta/Abonent shartnomasi bo'yicha Tomonlarning irodasi va faoliyatlariga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik, suv toshqinlari, yong'inlar va boshqalar) yoki siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab, import va eksportni taqiqlash, ommaviy biologik yoki kimyoviy ifloslanish xavfi yoki radiatsiyaviy nurlanish xavfi yoki ma'lum bir (cheklangan) hududda yoki respublika hududida favqulodda vaziyat/holat e'lon qilinishi, pandemiya yoki sanitariya-epidemiologik vaziyat yomonlashishi oqibatida karantin yoxud vaqtinchalik boshqa cheklovlar, shu jumladan, fuqarolarning ayrim huquqlari bo'yicha cheklovlar o'rnatilishi va boshqalar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda Tomonlar uchun qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda vaziyat, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlar fors-major holatlari deb toifalanadi.

10.2. Mazkur Ommaviy oferta shartlarida Abonent shartnomasi tuzilganidan keyin kelib chiqqan va Tomonlarning nazorati ostida bo'lmagan fors-major holatlarining (favqulodda vaziyat xarakterining) bevosita natijasi bo'lsa, Tomonlarning hech biri o'z majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

10.3. Tomonlarning o'z majburiyatlarini bajarish muddati, bunday holatlar va ularning oqibatlari amal qilish muddatiga mutanosib ravishda qoldiriladi/uzaytiriladi. Agar Abonent shartnomasi bo'yicha majburiyatlar bajarilishining imkoni bo'lmasa, mazkur bobda ko'rsatilgan holatlarning kelib chiqishi, amal qilish muddati va bekor qilinishi to'g'risida bir Tomon 10 (o'n) kalendar kuni davomida yozma ravishda boshqa Tomonga xabarnoma yuboradi. Ushbu xabarnomada bayon etilgan faktlar O'zbekiston Respublikasining vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

10.4. Agar majburiyatlarning to'liq yoki qisman bajarilmasligi 3 (uch) kalendar oyidan ortiq vaqt mobaynida mavjud bo'lsa, Operator Abonent shartnomasini Abonentning mumkin bo'lgan zararlarini (shu jumladan xarajatlarni) qoplash majburiyatisiz to'liq yoki qisman bekor qilishga haqli.

11. 11. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

11.1. Abonent shartnomasini bajarish bilan bog'liq masalalar bo'yicha barcha nizolar va kelishmovchiliklarni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, Tomonlar talablari asosida, nizolarni sudgacha hal etish tartibiga, shu jumladan, mediatsiya tartibiga rioya qilingan holda va O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan normalarga muvofiq hal qilinadi.

11.1.1. **Abonent – jismoniy shaxs uchun:** Tomonlar o'rtasida nizo va kelishmovchiklar yuzaga kelgan vaziyatlarda Operator yoki Dilemning tegishli ofisi joylashgan joyidagi fuqarolik ishlari bo'yicha sudida O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq ko'rib chiqiladi.

11.1.2. **Abonent – yuridik shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor yoki qonun hujjatlariga ko'ra, yuridik shaxsni tashkil etmagan holda faoliyat yurituvchi fuqarolik-huquqiy munosabatlarning boshqa ishtirokchisi, nodavlat-notijorat tashkilot, ommaviy-huquqiy tashkilot va boshqalar uchun:** Tomonlar o'rtasida yuzaga kelgan nizo va kelishmovchiliklar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

11.2. Telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatishni rad etish, Abonent shartnomasidan kelib chiqadigan majburiyatlarni o'z vaqtida bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik bilan bog'liq masalalar yuzasidan yozma/elektron shaklda taqdim etilgan ariza/e'tiroznoma ko'rinishidagi murojaat/shikoyat telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatilgan, uni ko'rsatish rad etilgan yoki hisob taqdim etilgan kundan boshlab, ko'pi bilan 6 (olti) oy ichida berilishi lozim. Bunda murojaatda Abonent shartnomasining nusxasi, shuningdek, ko'rib chiqilishi zarur bo'lgan boshqa hujjatlar ilova qilinadi, bu hujjatlarda shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi yoki lozim

darajada bajarilmaganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, yetkazilgan zarar qoplanishi to'g'risida da'vo qilingan holda — yetkazilgan zarar fakti va miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi lozim.

11.2.1. Abonent tomonidan yozma/elektron shaklda taqdim etilgan ariza/e'tiroznoma ko'rinishidagi murojaati Operator tomonidan kelib tushgan kunning o'zida ro'yxatga olinib, qonun hujjatlariga muvofiq ko'rib chiqiladi.

11.3. Telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatilishi yetarli darajada amalga oshirilmaganligi yoki ko'rsatilmaganligi bilan bog'liq e'tirozlar Mazkur Ommaviy ofertaning 11.4-bandida ko'rsatilgan sanaga amal qilingan holda qabul qilinadi va qonun hujjatlariga muvofiq ko'rib chiqiladi.

11.3.1. Bunday e'tirozga javob telegraf orqali, teletayp, elektron pochta (e-mail) orqali, shuningdek, aloqa vositalarining boshqa usullaridan foydalangan holda, Abonentga topshirilganligi to'g'risida yozma shaklda tasdiqnoma bilan yoki buyurtma xat orqali yuboriladi.

11.4. Abonentning yozma/elektron shaklda taqdim etilgan ariza/e'tiroznoma/shikoyat/taklif ko'rinishidagi murojaati ko'pi bilan 30 (o'ttiz) kun davomida ko'rib chiqiladi va tegishli shaklda javob beriladi. Bunda, murojaatni ko'rib chiqish uchun **15 (o'n besh) kundan ortiq muddat** talab etilsa, murojaat muallifi bu haqda majburiy ravishda xabardor qilinadi.

11.5. Tarmoqqa noqonuniy/ruxsatsiz kirish yo'li bilan uchinchi shaxslarning xizmatlaridan foydalanish natijasida nizo/kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, Operator sodir etilgan xatti-harakatlarning tegishlilikini aniqlash uchun belgilangan tartibda ichki texnik tekshiruv o'tkazishga haqli.

11.6. Operator, Abonent tomonidan Operator xizmatlaridan foydalanishining beg'arazligi bo'yicha shubha tug'ilsa, u istalgan maqbul usulda Abonentga Operator ofisiga kelish lozimligi haqida xabarni yuborib, xabarda holatlarni aniqlashtirish va xizmatlar ko'rsatishni to'xtatib turish mumkinligi haqida tushuntirish beradi. Agar Operatorning xabarnomasi yuborilgan kundan boshlab, 3 (uch) kalendar kuni mobaynida Abonent tomonidan bajarilmasa, Operator Abonent tomonidan Operator talab qilgan shartlar bajarilgunga qadar xizmat ko'rsatishni to'xtatishga haqli.

11.7. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun vujudga kelgan va ixtiyoriy ravishda to'lanmagan Abonentning Operator oldidagi qarzlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berilgan sud buyrug'i/qarori/notariusning ijro yozuvlariga asosan so'zsiz tartibda majburiy undiriladi.

11.8. Operatorga yuborilgan murojaatda qo'yilgan masalalarni hal etish Operatorning vakolatiga kirmaydigan bo'lsa, murojaat kelib tushgan sanadan 5 (besh) kundan kechiktirmay, tegishlilik bo'yicha, davlat organlari, tashkilotlar va mansabdor shaxslarga yuboriladi va bu haqda Abonentga belgilangan shaklda xabar qilinadi.

12. 12. AMAL QILISH MUDDATI, O'ZGARTIRISH YOKI BEKOR QILISH TARTIBI

12.1. Abonent shartnomasi Abonent tomonidan mazkur Ommaviy oferta shartlarida qabul qilingan/aksept amalga oshirilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi va Abonent shartnomasida ko'rsatilgan muddatda amal qiladi, ushbu shartnomada amal qilish muddati mavjud bo'lmagan hollarda, Abonent shartnomasi muddatsiz tuzilgan deb hisoblanadi.

12.2. Abonent shartnomasi shartlari, jumladan, Telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish bo'yicha o'zgartirishlar (Tarif/Tarif rejalarini o'zgartirish, xizmatlar uchun hisob-kitoblar tartibi va boshqalar) haqida Operator tomonidan bir tomonlama tartibda, OAVda e'lon berish, Operator veb-saytida joylashtirish, Abonentga SMS-xabar yuborish yoki elektron pochta manziliga, shuningdek, Operator uchun ma'qul bo'lgan boshqa vositalar orqali usullarda) xabardor qilinadi.

12.2.1. Operator tomonidan kiritilgan o'zgartirishlar (Tarif/Tarif rejalarini o'zgartirish, xizmatlar uchun hisob-kitoblar tartibi va boshqalar) haqida tegishli xabarnomalar Abonentga yuborilgan sanadan boshlab yoki tegishli ma'lumotlar joylashtirilgan/e'lon qilingan sanadan boshlab, ko'rsatilayotgan xizmat turi toifasiga qarab, **10 (o'n)**

kalendar kunidan 15 (o'n besh) kalendar kunigacha bo'lgan muddat mobaynida Abonent tomonidan bunday o'zgartirishlar yozma/elektron shaklda rad etilmasa, Abonent tomonidan to'liq qabul qilingan hisoblanadi. Agar mazkur kichik bandda ko'rsatilgan muddat ichida Abonent tomonidan Operatorning bunday o'zgartirishlarini qabul qilish rad etilgan bo'lsa, Abonent shartnomasi ushbu rad etish haqidagi murojaati kelib tushgan kundan **15 (o'n besh) kalendar kun** o'tganidan keyingi kuni Abonent tashabbusi bilan bekor qilingan hisoblanadi.

12.3. Abonent shartnomasi (mazkur band matnida - shartnoma deb yuritiladi) quyidagi holatlarda bekor qilinishi mumkin:

12.3.1. Abonent tashabbusi bilan tugatish sababini ko'rsatilgan yoki ko'rsatilmagan holda shartnomani bekor qilish. Bunda, Abonent (jismoniy shaxslar bundan mustasno) Operatorga bekor qilish mo'ljallangan/rejalashtirilgan sanadan kamida 15 (o'n besh) kalendar kun oldin yozma/elektron shaklda xabar berishi shart. Bunday holatda, xizmat muddati yakunlangan sanasi, xizmatlar ko'rsatiladigan joriy oyning oxirgi kuni deb hisoblanadi.

12.3.2. Quyidagi hollarda Operator tashabbusi bilan Abonent shartnomasi (mazkur band matnida - shartnoma deb yuritiladi) bekor qilinishi mumkin:

- Abonent tomonidan shartnoma shartlari va tanlab olingan xizmat qoidolari/shartlari buzilganida;
- majburiyatlarni bajarishning imkoni bo'lmaganida (xizmat ko'rsatish uchun texnik imkoniyat mavjud bo'lmaganida);
- yengib bo'lmaydigan kuchlar/fors-major holatlarida;
- Abonent-jismoniy shaxs vafot etganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilganda (merosxo'r/huquqiy voris mavjud bo'lmagan hollarda);
- xizmat ko'rsatish to'xtatilgan sanadan boshlab, Abonent tomonidan ketma-ket **60 (oltmish) kalendar kuni** mobaynida Telekommunikatsiya xizmatlarini olish huquqini beradigan tranzaksiya amalga oshirilmasa, shu sanadan boshlab, xizmatni ko'rsatish to'xtatilishi;
- Abonent tomonidan ketma-ket **90 (to'qson) kalendar kun** mobaynida mobil aloqa xizmatlari bo'yicha ushbu xizmat turini olish huquqini beradigan tranzaksiyalar amalga oshirilmaganda. Ushbu xatboshi qoidasi faqat Tarif/Tarif rejasiga ko'ra, Abonent to'lovi talab etilmaydigan mobil aloqa xizmatlariga tatbiq etiladi;
- "Raqamni saqlash uchun to'lov", "Ixtiyoriy bloklash xizmati", "Abonentning iltimosiga ko'ra, telefonni vaqtincha o'chirib qo'yish" va boshqa Qo'shimcha xizmatlar faollashtirilmagan hollarda, shuningdek, Xizmatlarni faollashtirish uchun tegishli to'lovlar mavjud bo'lmaganda, Operator Abonent bilan Shartnomani band qilingan tarmoq resursini kelgusida bo'shatish bilan bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega (boshqa xizmat bo'yicha).

12.3.3. Quyidagi hollarda Abonent shartnomasi bekor qilinib, Abonent Operator tarmog'idan o'chiriladi:

- Abonent tomonidan telekommunikatsiya xizmat turidan tijorat maqsadida va litsenziyasiz foydalanilgan holat aniqlanganda;
- Abonent tomonidan FROD harakatlari sodir etilishi aniqlanganda;
- shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa holatlarda.

12.4. Abonent shartnomasini bajarishdan bosh tortgan yoki shartnoma boshqa asoslar bo'yicha bekor qilingan paytdan boshlab, Tomonlarning majburiyatlari bekor qilingan deb hisoblanadi (Abonent shartnomasini bekor qilish vaqtiga qadar ko'rsatilgan, lekin Abonent tomonidan to'lanmagan xizmat xaqi bilan bog'liq majburiyatlar bundan mustasno).

12.5. Abonent shartnomasi bekor qilinganda ijobiy balans qoldig'i - Shaxsiy hisob raqamidagi pul mablag'lari qoldig'i uning mavjud bank hisob raqamiga yoki uning bank plastik kartasiga o'tkazish yo'li bilan Abonentga qaytariladi. Bunda Abonent Operatorga tegishli yozma ariza va Shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishi (jismoniy shaxslar uchun), shuningdek, bank rekvizitlarini (bank nomi, bankning: MFO, STIR, pul mablag'larini plastik kartaga o'tkazish uchun tranzit hisob raqami va plastik karta raqami) ko'rsatib, ma'lumot berishi shart.

12.5.1. Operator Abonentning shaxsiy hisob raqamidagi qoldiq pul mablag'larini qaytarish to'g'risidagi arizasini olgandan so'ng, mablag'lar 15 (o'n besh) bank kuni ichida Abonentga qaytariladi. Bunda, Operator 6.14.1-bandga muvofiq, to'lov tizimlari yoki to'lov agentlari (terminallar) orqali Abonent (jismoniy shaxs) tomonidan telekommunikatsiya xizmatlari uchun to'langan pul mablag'larini tranzaksiyasi bilan bog'liq Operator xarajatlarini hisoblash va ushlab qolish huquqiga ega.

12.5.2. Abonent shartnomasi bekor qilinganda, shartnoma shartlarida belgilangan Abonent qurilmasi, SIM-kartani ulash uchun to'lov Abonentga qaytarilmaydi va pullik toifadagi Abonent raqamini tanlash uchun xizmat to'lovi Operator tomonidan qoplanmaydi/qaytarilmaydi.

12.5.3. Operator bilan yangi Abonent shartnomasini tuzishda Abonentga avval taqdim etilgan Abonent raqamini saqlab qolinishi kafolatlanmaydi.

12.6. Abonent – jismoniy shaxs vafot etgan taqdirda, Abonent shartnomasi Operator tomonidan o'lim haqidagi guvohnomaning tegishli tasdiqlangan nusxasi yoki asl nusxasi taqdim qilinib, Operator ofisida nusxa olinganidan so'ng, bekor qilinadi. Tugatish jarayonida bo'lgan va yoki tugatilgan Abonent – yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkor yoki boshqa shaxslar bilan Abonent shartnomasini bekor qilish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

12.6.1. Abonent shartnomasining taraflaridan biri (shu jumladan, huquqiy voris yoki meros qilib olingan, faollashtirilgan SIM-karta boshqa shaxsga sovg'a sifatida berilgan holda) o'zgartirilganda, avvalgi Abonent shartnomasi bekor qilinadi va yangi Abonent bilan tuziladi. Pullik toifadagi raqamni qayta rasmiylashtirish, bu holda, qarindoshlarga meros huquqi to'g'risidagi guvohnomaga (yoki notarial tasdiqlangan vasiyatnomaga, huquqiy vorislik o'tganligini tasdiqlovchi boshqa rasmiy hujjatga) muvofiq, pullik toifadagi raqamni qayta rasmiylashtirish uchun to'lovsiz amalga oshiriladi. Bunda, Abonent haqidagi ma'lumotlar bazasini ASRga qayta rasmiylashtirish bilan bog'liq to'lov amaldagi Tarifga muvofiq undiriladi.

13. YAKUNIY SHARTLAR

13.1. Tomonlar ushbu Ommaviy oferta/Abonent shartnomasiga muvofiq o'z huquqlari va majburiyatlari bilan bog'liq ravishda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashishni tartibga soluvchi qonun hujjatlarini normalari buzishi mumkin bo'lgan har qanday choralar ko'rmasliklari yoki xatti-harakatlarni sodir etmasliklari shart, shu jumladan, (lekin cheklanmagan holda) pul yoki boshqa har qanday ko'rinishda/shaklda pora berishni, shu jumladan, (lekin cheklanmagan holda) noqonuniy to'lovlarni taklif qilishi, rozilik/ruxsat/sanksiya berish, va'da qilish va amalga oshirish, shu jumladan, (lekin cheklanmagan holda) jismoniy yoki yuridik shaxslarga, shu jumladan, tijorat tashkilotlari, davlat xizmatchilari, xususiy korxona va kompaniyalar hamda ularning vakillari yoki affillangan shaxslariga.

13.2. Tomonlardan biri ushbu bobning 13.1-bandida ko'rsatilgan majburiyatlarni buzgan taqdirda, boshqa Tomon bir tomonlama suddan tashqari tartibda ushbu Ommaviy oferta/Abonent shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajarishdan voz kechish huquqiga ega. Ushbu moddaga muvofiq Abonent shartnomasi bekor qilingan taqdirda Tomonlar bir-biriga ziyon/zararni qoplamaydi (ko'rsatilgan xizmatlar haqi yoki Abonent to'lovi bo'yicha Abonent majburiyatlari bundan mustasno).

13.3. Abonentga Telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatishda yuzaga keladigan va mazkur Ommaviy oferta/Abonent shartnomasi bilan to'g'ridan-to'g'ri hal etilmagan yoki hal etilmaydigan Tomonlarning boshqa huquqiy munosabatlari Qoidalar hamda O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarini tartibga solinadi. Mazkur

Ommaviy oferta bilan hal qilinmagan barcha masalalar bo'yicha Tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq amal qiladilar.

13.4. Mazkur Ommaviy oferta Operatorning veb-saytida yoki OAVda e'lon qilingan kundan boshlab, 15 (o'n) besh kun o'tganidan so'ng, kuchga kiradi.